

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Tarix fakulteti
“Jahon tarixi” kafedrası

XVIII-XIX asrlarda Rossiyaning ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi

(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)

Muallif : t.f.n., dots. A. G. Xolliev

Mas'ul muharrir : t.f.n., dots. O.A.Maxmudov

**Taqrizchilar : t.f.n., dots. D. Yu. Misharev
katta o'qituvchi A. A. Razzoqov**

Taqdim etilayotgan o'quv - uslubiy qo'llanmada XVIII – XIX asrlarda Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining asosiy bosqichlari, yo'nalishlari va tendensiyalari ko'rib chiqilgan.

В представленном учебно-методическом пособии рассматриваются основные этапы, направления и тенденции социально-экономического и политического развития России в XVIII – XIX веках.

The main stages, directions and tendencies of social-economic and political development of Russia in XVIII – XIX centuries are considered in the given manual.

Qo'llanma O'zMU Tarix fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2013 yil 8 iyunda bo'lib o'tgan majlisi qarori (bayonnoma № 11) bilan nashrga tavsiya etildi.

© A. G. Xolliev

M U N D A R I J A

1. Rossiya Pyotr I islohotlari zamonida.....	4
2. Rossiya saroy to'ntarishlari davrida.....	23
3. XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi.....	32
4. Rossiya Ekaterina II podsholigi davrida.....	42
5. XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi choragida Rossiyaning ichki siyosati.....	53
6. XIX asrning ikkinchi choragida Rossiyaning ichki siyosati.....	67
7. XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi.....	71
8. Rossiya Aleksandr II islohotlari davrida.....	82
9. XIX asr oxirida Rossiyaning ichki siyosati.....	109
10. XIX asr oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.....	119

1 mavzu. Rossiya Pyotr I islohotlari zamonida

Pyotr davri Rossiya tarixida muhim bir chegaradir. Islohotlar avvalo shu qadar chuqur iz qoldirdiki, ular mamlakatning xilma-xil sohalarini qamrab oldi. Islohotlarning amalga oshirilishi Pyotr I faoliyati bilan bogʻliqdir.

Pyotr I ning xizmati uning mamlakat oldida koʻndalang boʻlib turgan vazifalarni toʻgʻri tushunib, bu vazifalarni sabot va matonat bilan amalga oshirishidir.

XVII asr oxiri bilan XVIII asrning birinchi choragi oʻrtasidagi islohotlar zamonini ikki davrga boʻlish mumkin. Birinchisi, Poltava gʻalabasini va undan keyingi 4—5 yilni ichiga oladi; Pyotr I podsholik qilgan zamonning ana shundan keyingi yillari ikkinchi davrni tashkil etadi.

Pyotr I ning hokimiyat tepasiga kelishidan oldin saroy guruhlari oʻrtasida keskin kurash borayotgan va bu kurashlarda streletslar(oʻqchilar) qizgʻin ishtirok qilgan edi. Pyotr I (1672—1725) podsho Aleksey Mixaylovichining ikkinchi xotinidan, nufuzi ketgan dvoryanlar urugʻining namoyandasi boʻlgan Natalya Narishkinadan tugʻilgan edi. Fyodor Alekseevich podsholik qilgan (1676—1682) zamondayoq saroyda ikki guruh tashkil topgan edi. Bir guruhning boshida aqlli va gʻayratli malika Sofya turar edi. Sofya terem (kushk) dagi tarkidunyochilik hayotini rad etib, hokimiyatni oʻylardi. Sofya Aleksey Mixaylovichning birinchi xotini qarindoshlariga - boyar Miloslavskiylarga tayanib ish koʻrardi. Boshqa guruhga malika Natalya Kirillovna Narishkina boshchilik qilardi.

Farzandsiz dunyodan oʻtgan podsho Fyodor Alekseevichdan keyin kimni taxtga oʻtqazish masalasi qoʻzgʻaldi. Yuridik jihatdan kattaroq yoshdagi Ivan Alekseevich taxtni egallashi lozim boʻlsa-da, u boʻshang, kasalmand va idora qilishga qobiliyatsiz shahzoda edi. Shuning uchun juda yosh boʻlsa-da idrokli, ziyrak, 10 yoshlik bola Pyotr taxt egasi qilindi. Pyotrning taxtga oʻtqazilishiga Miloslavskiylarning gʻazabi keldi. Miloslavskiylar streletslarning noroziligidan foydalanib, ularni Narishkinlarga qarshi koʻtardi. Isyon vaqtida

1682 yil 15 mayda streletslar Narishkinlarning atoqli tarafdorlarini o'ldirishdi va bir necha vaqtdan keyin aka-uka Ivan bilan Pyotrning ikkisi ham podsholik qilsin, ular yosh bo'lganligidan idora qilish malika Sofyaga topshirilsin, degan talabni qo'yishdi.

Sofya idora qilib turganda Narishkinlar hokimiyatdan chetlashtirildi. Pyotr Moskva yaqinidagi Preobrajensk qishlog'ida yashar va unda harbiy o'yinlar o'ynab, o'z tengoshlaridan «ermak» («poteschniy») otryadlar tuzib, vaqt o'tkazardi; keyinchalik shu «ermak» otryadlar negizida Preobrajenskiy va Semenov polklari tashkil topgan edi.

Sofya bilan Pyotr o'rtasidagi munosabat yildan-yil keskinlashib bordi va 1689 yil yoziga kelib ochiqdan-ochiq to'qnashish muqarrar bo'lib qoldi. 1689 yil 8 avgustga o'tar kechasi Pyotr I ning maxfiy tarafdorlari unga Sofya streletslarni go'yo Preobrajenskka otlantirishga tayyorgarlik ko'rmoqda deb xabar keltirishdi. Keyinchalik bu xabarning yolg'onligi ma'lum bo'ldi, ammo xavfli xabardan joni chiqqan Pyotr ot minib Troitse-Sergieva monastiriga keldi, tezda bu erga uning ermak qo'shini ham etib keldi. Qurolli kurash boshlanishi mumkin edi-yu, lekin avval boshda Sofyani qo'llab-quvvatlab turgan streletslar polki bunday kurashga moyil bo'lmay, birin-ketin Pyotr tomoniga o'tdi. Sofya qurolli yordamdan mahrum bo'ldi va uni qiyinchiliksiz monastirga surgun qilishdi.

Sofya ag'darilgandan keyin Pyotr ancha vaqtgacha harbiy o'yinlar va kemasozlik bilan mashg'ul bo'lib, boshqarish ishlari bilan shug'ullanmadi, bu ishlarni Narishkinlar tarafdorlaridan tuzilgan hukumat a'zolariga topshirdi.

Rossiyaning Oxota dengizidan Fin qo'ltig'igacha va Oq dengizdan Azov va Qora dengizgacha yoyilib yotgan g'oyat keng territoriyasi aslida qulay dengiz yo'llaridan mahrum edi. Janubda Azov dengiziga chiqadigan yo'lni turklarning kuchli Azov qal'asi to'sib turardi. Dnepr orqali Qora dengizga chiqadigan yo'l ustidagi Ochakov qal'asi ham turklar qo'lida edi. Rossiya shimoli-g'arbida Boltiq dengizi va Fin qo'ltig'i qirg'oqlariga ham chiqolmas edi, chunki bu qirg'oqdagi erlarni XVII asr boshida shvedlar ishg'ol qilgan

edi. Rossiya shimolda Oq dengizga chiqa olardi, lekin bundagi Arxangelsk G'arb bilan savdo aloqalarini zarur darajada ta'min etishga qodir emas edi. Oq dengizni 6 oy davomida muz qoplab turar, Muz okeanida G'arbiy Evropaga chiqadigan yo'l Boltiq dengizidan chiqadigan yo'lga nisbatan ikki baravar olislik qilardi. Nihoyat iqtisodiy jihatdan eng rivoj topgan mamlakat markazining dengiz portiga chiqadigan suv yo'lidan mahrum bo'lib, yuklar Moskvadan Yaroslavl orqali Vologdadan qishda chanalarda tashilar, so'ngra bundan Suxona va Shimoliy Dvinadan Arxangelskka olib borilardi.

Bu sharoitda dengizga chiqish uchun kurash Rus davlatining taqdiri uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etardi. Bu iqtisodiy jihatdan yakkalanib kelishga qarshi kurash bo'lib, xo'jalikning hamma tarmoqlaridagi iqtisodiy qoloqlikni yo'qotish shu kurashning muvaffaqiyatiga bog'liq edi.

Azov yurishlari (1695-1696 yy.) tashqi siyosat bobida ana shu maqsadga erishishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Pyotr I ikki yurishda ham oddiy bombardir unvonidagi Pyotr Mixaylov nomi bilan ishtirok qilgan. Lekin Azov ishg'ol qilingani bilan G'arbga chiqadigan dengiz yo'llari hali qo'lga kiritilgan emas edi, negaki Kerch bo'g'ozi va Qora dengiz hali Turkiya qo'lida edi. SHunday bo'lsada, Azov yurishlari yangiliklar qilishga turtki berdi. Katta-katta harbiy dengiz kemalari qurish dasturi ishlab chiqildi. Boy dunyoviy va ruhoniylar feodallar «kumpanstvo»larga ajratildi. 8—10 ming dehqon bo'lgan feodallardan iborat har bir «kumpanstvo» bitta kema qurib berishi lozim edi. Posad aholisi o'z «kumpanstvo» larini tashkil etib, ularga 14 kema qurish majburiyati yuklandi. Turkiya bilan davomli kurashga tayyorgarlik yuzasidan Rossiyaning metallurgiya sanoatini mustahkamlash tadbirlari ko'rildi. Pyotr I Azovda chog'idayoq Uralda foydali qazilmalar qidirish ishini kuchaytirishni buyurgan edi. Hukumat Turkiya bilan bo'ladigan kurash uchun harbiy qudratini mustahkamlash bilan birga diplomatiya sohasida ham tayyorgarlik ko'rdi.

1697 yilda Rossiya, Avstriya va Venetsiya turklarga qarshi uch yil muddatga hujum ittifoqi tuzishdi. Rus diplomatiyasi bu ittifoqqa G'arbiy

Evropa davlatlarini ham jalb qilib, ittifoqni mustahkamlash niyatida edi. Shu maqsadda o'sha 1697 yildayoq chet mamlakatlarga F. Ya. Lefort, F. A. Golovin va P. B. Voznitsin boshchiligida «buyuk elchilik» yuborildi. Ko'pdan-ko'p elchiliklar ichida yashirin nom bilan podshoning o'zi va harbiy-dengiz ishlari va kemasozlikni o'rganish uchun yuborilgan yosh dvoryanlar (volonterlar) ham bo'lardi. Pyotr Gollandiyada bo'lib, unda verfda ishlash bilan birga diplomatik muzokaralarga rahbarlik qilgan, so'ngra o'sha zamonning eng rivoj topgan mamlakati Angliyaga ketgan va unda kemasozlik bilimini orttirgan edi. Biroq elchilik o'zining diplomatik vazifasini bajarmadi. Dengiz davlatlari bo'lgan Gollandiya bilan Angliya Rossiyaning taklifini qabul qilmadi, chunki ular Turkiya bilan bo'layotgan savdo muomalalaridan manfaatdor bo'lganligi hamda "ispan merosi" uchun Fransiya bilan janjal yaqinlashib kelayotganligi sababli shunga tayyorgarlik ko'rish bilan band edi.

Venetsiya bilan Avstriya ham Turkiya bilan bir tomonlama sulh bitimi tuzish niyatida edi. Turklarga qarshi ittifoq buzilishining oldini olish uchun Pyotr Avstriya va Venetsiyaga jo'nashga qaror qildi. U 1698 yil yozida Venaga keldi va bunda Rossiyada xavfli voqealar sodir bo'layotganligidan xabar oldi—unda yana streletslarning fitnasi boshlangan edi. Venetsiyaga jo'nash kechiktirildi va Pyotr shoshilib Rossiyaga qaytib ketdi.

Streletslar isyoni Pyotr Moskvaga qaytib kelmasdanoq bostirilgan edi. Bu vaqtda o'z polkovniklariga bo'ysunishdan bosh tortgan to'rtta strelets polki Moskvaga yo'l olganlarida hukumatga sodiq qo'shinlar Voskresensk monastiri yonida ularni tor-mor keltirdi. Isyonda ishtirok qilgan oddiy streletslar turli shaharlarga surgun qilindi, boshliqlari esa qatl qilindi, Tergov natijasida streletslar qo'zg'olonga yurishlar, hayotidagi og'irliklar, poytaxtda yashaganlarida keng shug'ullangan savdo-sotiq ishlari va kasbkorlikdan ajrab qolganliklari sabab bo'lganligi aniqlandi. Moskvaga qaytib kelgan Pyotrning streletslar harakati Novodeviche monastirida yashayotgan Sofyaning ishi, deb gumonsirashi asossiz emas edi. Podshoning amri bilan qilingan yangi qidirishlar va surgundan poytaxtga keltirib qattiq qiynoqlar ostidagi so'roqlar

bu gumonni tasdiqladi. Streletslar «malikani idora qilishga chaqirmoqchi» va hatto sulolani o'zgartirmoqchi bo'lgan edi. 799 ta strelets qatl qilindi, ulardan uchtasi malika Sofyaning hujrasi oldida dorga osildi.

Bu voqealardan keyin harbiy va siyosiy ishonchga loyiq bo'lmagan streletslar qo'shini tarqatib yuborildi. Hukumat 1699 yilda qurolli kuchlarini to'ldirishning yangi tartibiga - doimiy polklarda doimiy harbiy xizmat uchun ma'lum miqdor dehqon va posadliklar xonadonidan bittadan rekrut olish tartibiga o'tdi. Bu - mamlakat mudofaasini mustahkamlash yo'lida qo'yilgan muhim qadam edi.

2 mavzu. Rossiya saroy to'ntarishlari davrida

Pyotr uzoq davom etgan kasallikdan so'ng 1725 yil 28 yanvarda o'zi tomonidan taxt merosxo'ri haqidagi farmondan foydalana olmay vafot etdi. U vorisni tayinlashga ulgura olmadi. Eski aslzodalar taxtda qatl etilgan shahzoda Alekseyning kichik yoshli o'g'li Pyotrni ko'rishni xohlashar edi. Lekin bu nomzod Pyotr I davrida ko'tarilgan shahzoda Aleksey ishidagi tergovda va uning ustidan bo'lgan sudda faol ishtirok etgan mansabdorlarga hech bir yaxshilik olib kelmasligi ayon edi. Ular Pyotrga qarama-qarshi ravishda vafot etgan imperatorning xotini — Ekaterina nomzodini qo'llab-quvvatladilar. Voris haqidagi bahsni gvardiyachilar polki hal etdi. O'z tarkibiga ko'ra dvoryanlardan iborat bo'lgan gvardiyachilar polki shu vaqtdan boshlab hokimiyat uchun kurashayotgan birbiriga dushman hukmron guruhlar o'rtasidagi asosiy qurolga aylandi.

Pyotr I davrida nom qozongan Menshikov, Tolstoy, Apraksin va yangi aslzodalarning boshqa vakillari saroyga chaqirilgan gvardiyachilar polking yordamiga ishonib, taxtga Ekaterinani ko'tardilar. Amalda esa hokimiyat aqlli va o'ziga bino qo'ygan knyaz A. D. Menshikov qo'lida bo'lib qoldi. Ulkan

imperiyaning boshqarishga mutlaqo tayyorgarligi bo'lmagan imperatritsa davrida, 1726 yilda Oliy maxfiy kengash tashkil etildi. Uning tarkibiga Menshikov boshliq yangi aslzodalar bilan birgalikda nasliy aristokratiyaning vakili bo'lgan knyaz D. M. Golitsin ham kiritildi.

Oliy maxfiy kengash davlatdagi oliy organga aylandi, unga birinchi uch kollegiya (Harbiy, Admiralteystvo va Tashqi ishlar), shuningdek Senat bo'ysunar edi. Senat hukm yuritish unvonidan mahrum bo'ldi va oliy deb atala boshladi.

1727 yilda Ekaterina I vafot etgandan so'ng, uning vasiyatiga muvofiq Pyotr I nabirasi Pyotr II imperator deb e'lon qilindi. Oliy maxfiy kengashga esa regent vazifasi o'tdi. Ilgari qatl etilgan shahzoda Alekseyning o'g'li haqida eshitishni ham xohlamagan, endilikda esa uning taxtga nomzodligini qo'llab-quvvatlagan Menshikovning nuqtai nazaridan bunchalik keskin o'zgarish muvaqqatchining yosh imperatorni o'z qiziga uylantirishdek uzoqni ko'zlagan reja bilan bog'liq edi. Menshikovning haddini bilmagan o'ziga bino qo'yishi faqat aslzodalar o'rtasidagina emas, balki uning yaqinidagi ittifoqchilarida ham norozilik tug'dirdi. Ekaterina I o'limi arafasidayoq, unga qarshi Tolstoy boshchiligida fitna tayyorlandi. Fitnachilar fosh etildi va surgun qilindi. Biroq Menshikov Tolstoyni yo'qotish bilan hokimiyat uchun zodagonlarga yo'l ochib berdi, o'z tarafdorlari sonini kamaytirdi. Bularning hammasi oqibatda uning qulashini tezlashtirdi. 1727 yil sentyabrida Menshikov qamoqqa olindi va uzoq Berezovga surgun qilindi va tezda o'sha erda o'ldi. Uning 100 mingdan oshiq krepostnoyi bo'lgan juda katta mulki musodara qilindi.

Menshikovning ag'darilishi amalda saroy to'ntarishini bildirar edi. Birinchidan, Oliy maxfiy kengashning tarkibi o'zgardi. Unda Pyotr davridagi mansabdorlardan faqat Osterman qoldi. Oliy maxfiy kengashning ko'pchiligi Golitsin va Dolgorukiylarning aslzoda nasabli vakillaridan iborat edi. Ikkinchidan, Oliy maxfiy kengashning mavqei o'zgardi. 12 yoshli Pyotr II tez orada o'zini to'la huquqli hukmdor deb e'lon qildi. Bu bilan Oliy kengashning regentligiga barham berildi.

Asilzodalar guruhi Oliy maxfiy kengashda ustunlik qiluvchi ta'sirga erishgach, Rossiyada islohotlargacha mavjud bo'lgan tartibni tiklashga intildi. «Oliylar» poytaxtni Peterburgdan Moskvaga ko'chirishdi, mablag'ni tejash bahonasida kollegiya a'zolari sonini kamaytirishdi, viloyat organlarini bo'laklab tashlashdi.

Saroyda vaqtini Pyotr II bilan aysh-ishrat va qo'pol ko'ngil ochishlar bilan o'tkazadigan bebosh o'g'li tufayli yuqori ko'tarilgan Aleksey Dolgorukiyning ta'siri katta edi.

Dolgorukiy ham Menshikov singari o'z ta'sirini yangi nikoh ittifoqi bilan mustahkamlashga intildi. Bu niyatning amalga oshirilishiga oz qolgan edi—1730 yil yanvarining o'rtalarida Pyotr II ning A. G. Dolgorukiyning qizi bilan to'yi tayinlangan edi, ammo imperator navbatdagi ov paytida shamollab qoldi va chechak kasaliga chalinib, to'satdan vafot etdi. Senatorlar, generallar, Sinod a'zolari, gvardiyachilar hamda kutilgan tantana uchun poytaxtga kelgan provinsiyalar dvoryanlarining ko'plab vakillari muhim siyosiy voqealarning ishtirokchisi bo'ldilar.

«Oliylar» maxfiy yig'ilishlarda taxtga nomzodlarni muhokama qildilar. A. G. Dolgorukiy va uning o'g'li tomonidan go'yoki Pyotr II tomonidan taxtni qayliqqa berish haqidagi vasiyat shu joyning o'zida soxta deb topildi. Uzoq vaqt monastir hujralarida azob chekkan va nabirasi tomonidan ozod etilgan Pyotr I ning birinchi xotinining nomzodini ham oliylar qo'llab-quvvatlamadilar. Pyotr I ning ikkinchi nikohidan bo'lgan qizi Elizaveta Petrovna ham «past zotli» onadan tug'ilgan degan asosda «Oliy kengashchilar» tomonidan rad etildi.

Pyotr I ning akasi—Ivan Alekseevichning qizi Kurlyandiya gersoginyasi Anna Ivanovnaning nomzodi munosib deb topildi, Pyotr I davrida siyosiy nuqtai nazardan chet ellik kuyov va kelinlar bilan nikohga kirishish rasmga aylandi. Anna Ivanovna Kurlyandiya gersogiga xotinlikka berilgan va shu zahoti beva qolib 20 yil begona Kurlyandiya dvoryanlari muhitida hayot kechirgan edi.

«Oliy kengashchilar» nazarida gersoginya cheklangan hokimiyat bilan

taxtni taklif etish mumkin bo'lgan eng munosib nomzod edi.

Anna Ivanovna, «Oliy kengashchilar» fikricha, Rossiyaning alla-qachonlar tark etib, bu erda o'zi tayanishi mumkin bo'lgan tarafdorlariga ega emas edi. «Oliy kengashchilar» mutlaqo maxfiy ravishda Anna Ivanovnaning taxtga o'tirish shartlari bayon etilgan konditsiyani imzo uchun Mitavaga jo'nadilar.

Anna Ivanovna davlatni mustabid imperatritsa sifatida emas, balki Oliy maxfiy kengash bilan birgalikda boshqarishi kerak edi. U Oliy maxfiy kengashning ijozatisiz urush e'lon qilmasligi, sulh tuzmasligi; yangi soliqlar joriy etmasligi, polkovnikdan yuqori unvon bermasligi, votchinani sudsiz in'om etishi «yoki tortib olishi mumkin emas edi. Gvardiyaga qo'mondonlik qilish Oliy maxfiy kengash ixtiyoriga o'tar edi. Shunday qilib, konditsiya samoderjaviy (mustabid hokimiyatni) cheklar edi.

3 mavzu. XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi

XVIII asr ikkinchi yarmidagi Rossiyada ishlab chiqarishning asosi qishloq xo'jaligi dehqon bo'lib qolaverdi.

Armiya va flot ehtiyojlari XVIII asr birinchi choragida Rossiya sanoatining tezroq rivojlanishini rag'batlantirar edi. Bu undovchi sabablar mamlakat qishloq xo'jaligida ancha kam darajada aks etdi.

Asosan javdar, arpa, polba (polba - bug'doyning bir navi) ekishar edi. Bug'doy boshqa o'simliklarga nisbatan faqat janubdagi erlardagina ko'proq ekilar edi. Bug'doy faqat ayrim joylardagina, asosan pomeshchik xo'jaliklarida javdarni quvib chiqara boshlagan, u ham juda sekinlik bilan bormoqda edi. Qurg'oqchilik va u keltiradigan ocharchilik mamlakatning turli viloyatlari uchun odatdagi hodisa edi.

Dvoryan pomeshchik xo'jaligi hamon krepostnoy dehqonlar mehnatiga

asoslanar edi. Krepostnoylar soni o'sib bordi (53% gacha). Moskvadan janubdagi Tula, Kaluga, Orlov, Kursk gubernyalarida krepostnoy dehqonlar soni 80—85% ga etdi. Rossiya imperiyasi gubernyalari bo'yicha o'rtacha olganda krepostnoylar soni 45% dan 70% oralig'ida edi. Faqat shimolda krepostnoylar juda oz (Vyatsk gubernyasi) yoki umuman yo'q. (Arxangelsk gubernyasida, Sibirda) edi.

80—90- yillarda hamma krepostnoy dehqonlarning 56% barshchina, 40% obrok to'lashar edi. Qora tuproqli, Oka daryosidan janubda joylashgan ishlab chiqaruvchi mintaqada barshchina ustunlik qilardi. Bu erda 90% ga yaqin dehqon barshchinaga o'tkazilgan edi. Pomeshchiklar ko'plab dehqonlarni-saroy va uy xizmatchilariga aylantirishardi.

Bozorda sotish uchun don etishtirish markazdagi va janubdagi singari daromad keltirmaydigan shimoliy, noqoratuproqli gubernyalarda pomeshchik haydalgan eri 20—25% ni tashkil etardi, barshchina kuchsiz rivojlangan bo'lib, obrok hukmronlik qilardi.. Obrok to'laydigan dehqonlar katta xo'jalik tashabbusiga ega edilar. Biroq obrokning oshib borishi obrok to'laydigan dehqonlar ahvolini ham yomonlashtirdi. 35—40 yil ichida (XVIII asr-ning 60—90 yillari)obrok jon boshiga 60- yillardagi 1—2 rubldan 90 yillardagi 5 rublgacha 4—5 marta o'sdi. Barshchina va obrok to'laydigan dehqonlarga pomeshchiklar qator majburiyatlar yukladilar (arava majburiyati, yigirish, tikuvchilik, meva va ko'ziqarin terish, pomeshchikning bog'i va polizida ishlash, botqoqliklarni quritish, ariq qazish va h. k.) Dehqonlar o'z huquqlarining qolganlaridan ham mahrum bo'la boshladi. Ularga ko'chmas mulkka ega bo'lish, pudrat va otkup olish va veksel berish, kafillikka o'tish, pomeshchikning maxsus ruxsatisiz savdo qilish yozma ruxsatisiz biron joyga borish man etildi. Dehqonlar «cho'qintirilgan mulk»ka aylandilar. Ularni hadya qilishar, sotishar va sotib olishar, karta o'yinida yutqazishar; ularni tahqirlashar, odam deb hisoblashmas edilar. Dehqonning «jon boshi» uchun ma'lum bir bozor bahosi belgilandi.

Krepostnoylardan tashqari yana boshqa toifa dehqonlar ham bor edi.

Davlat dehqonlari juda ko'pchilikni tashkil etardi. Iqtisod dehqonlari toifasidagilar ham ancha ko'pchilikni tashkil etardi. Bular sobiq monastir dehqonlari bo'lib, 1764 yilgi sekulyarizatsiyadan (ruhoniylar er egalari tomonidan (13,8% gacha) nazorat qilinardi. Mamlakat markazida hali saroyga qarashli dehqonlar bor edi (6,9%). Volga bo'y, Ural va Sibirda esa yasoq to'laydigan, «yot» deb ataladigan yasoq dehqonlar ko'p edi.

Dvoryan er egaligining o'sib borishi dehqon nadellarining kamayib borishi bilan bir vaqtda kechdi. Urmonlarning qirqilishi, yangi erlarning o'zlashtirilishi va hokazolarga qaramay dehqon nadeli qora tuproqli gubernyalarda o'rtacha 6 desyatinaga yaqinni, noqoratuproq gubernyalarda 8 desyatinani tashkil etardi.

Shu bilan birgalikda hunarmandchilik va sanoatning rivojlanishi, shaharlarning o'sishi to'xtovsiz o'sib boruvchi ichki bozorga ega bo'lgan qishloq xo'jaligining rivojlanishi uchun sharoit yaratardi.

O'zlashtirilgan erlardagi yangi erlar Novorossiya (Qora dengiz bo'y) va Zavolje (Volga orti) tez o'zlashtirildi. Dehqonchilik Sibirning chekka hududlariga ham kirib bordi.

Dvoryanlar Rossiyaning g'alla koni bo'lgan markaziy qoratuproq erlarida (Oryol, Kursk, Belgorod, Voronej) o'rmonlarni ayniqsa shafqatsizlarcha qirib, zo'r berib vino tortish bilan shug'ullandilar. Ilg'or dvoryan-sohibkorlar ko'p dalali ekishga o'tishga intildilar, o't ekishni qo'lladilar, yangi o'simliklarni (kunjut, gorchitsa (xantal), nil bo'yog'i, guruch, va boshqalar), qishloq xo'jalik mashinalarini olib kirishga, er ishlari siklini soddalashtirishga harakat qildi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi dvoryan er egaligining shiddatli o'sishi bilan ifodalanadi.

Davlat fondidagi erlarning katta-katta uchastkalari dvoryanlarning ixtiyoriga, birinchi navbatda dvoryan asilzodalari va arzanda (favorit)larga berila boshladi. 1762 yildan 1796 yilgacha bo'lgan davrda pomeschchiklarga

800 ming ro'yxatga olingan dehqon jon boshi berildi. 1762 yilgi saroy to'ntarishining ayrim ishtirokchilariga, Ekaterina II ni taxtga ko'targanlarga — Orlovlarga, Passek, Roslavlev, Lasunskiy va boshqalarga Ekaterina II ning taxta chiqqanligini nishonlash uchun 16 729 jon dehqon bo'lib berildi. Pomeshchik er egaligi Rossiyaning markaziy gubernyalarida va ayniqsa Ukraina va Novorossiyada juda tez tarqalib, o'sib bordi. Jumladan, dvoryan er egaligi qadimiy, dehqonlar tomonidan obod qilingan erlarni ham, «bo'sh yotgan», aholi ko'chib bormagan va birinchi navbatda dehqon mehnati bilan o'zlashtirilishga ehtiyoj sezilgan erlarni ham egallab ola bordi. Zaporoje Sechining tugatilishi (1775) va sloboda-ukrain kazak polklarining tashkil etilishi rus va ukrain pomeshchiklari tomonidan juda ko'p serhosil erlarning egallab olinishi bilan bir vaqtda kechdi.

O'rta va Quyi Volga bo'yining pomeshchiklar tomonidan o'zlashtirilishi kuchaydi; Boshqirdiston ham pomeshchiklar o'zlashtirilishi doirasiga tushib qoldi. Hamqo'rg'on er egaligi keskin kamaydi. Rus dvoryanlarining erga egaligi Sharqiy Belorussiyaning qayta qo'shilgan erlariga yoyildi.

Nihoyat avvallari erga egalikdan foydalangan yoki qisman foydalangan Ukraina va Dondagi kazak starshinalari orasida ham dvoryanlarning huquq va imtiyozlarining tarqalganligini qayd etib o'tmoq kerak. O'zlarining mavqeiga ko'ra Rossiya imperiyasining boshqa viloyatlaridagi dvoryanlardan sira farq qilmaydigan ukrain va Don dvoryanlari mana shu yo'l bilan vujudga keldi.

4 mavzu. Rossiya Ekaterina II podsholigi davrida

Ekaterina II taxtga 1762 yil 28 iyunda gvardiya tomonidan amalga oshirilgan saroy to'ntarishi natijasida o'tirdi.

Eshterina II podsholik qilgan davrni (1762—1796) ikki bosqichga bo'lish mumkin: 1) 1773—1775 yillardagi dehqonlar qo'zg'olonigacha va 2) bu

qo'zg'olondan keyin. Birinchi bosqichga: «ma'rifatli absolyutizm» davri to'g'ri keladi.

«Ma'rifatli absolyutizm» belgilari Elizaveta Petrovna davridayoq ko'ringan edi. Ammo ayni Ekaterina II podsholigining dastlabki yillarida Rossiyada «ma'rifatli absolyutizm» o'z cho'qqisiga etdi.

Pugachyov boshchiligidagi dehqonlar urushi XVIII asr rus tarixida chuqur iz qoldirdi.

Ikkinchi bosqich ayniqsa 1789—1790 yillarda Radishchevning chiqishlari va Fransiya inqilobi munosabati bilan kuchaygan siyosiy jarayonlar davrini o'zida ifodalaydi.

Mamlakatdagi ziddiyatlarning keskinlashuvi Ekaterina II ni «ma'rifatli absolyutizm» yo'liga o'tishga majbur etdi.

Kuchayib ketgan ijtimoiy kurash ta'siri ostida hukumat qisman yon bosishlarga borishi kerak edi. Ularga davlat dehqonlarini zavodlarga biriktirib qo'yishni to'xtatish, monastir dehqonlarini Ekonomiya(iqtisod) kollegiyasi ixtiyoriga berish va boshqalarni kiritish mumkin. 1765 yilda dvoryan sohibkorligiga yordam berish maqsadida tuzilgan Erkin iqtisodiy jamiyat bir yildan so'ng «masala» e'lon qildi. «Dehqonning mulki nimadan iborat: u ishlov beradigan erdami, yoki harakatdagi mollardami, u bu huquqlardan umumxalq manfaati uchun qanday foydalanishi mumkin» deyilgan edi. Bu «masalaning» muallifi Ekaterinaning o'zi edi.

«Ma'rifatli absolyutizm»ning eng yorqin ko'rinishlaridan biri Yangi Qonunlar to'plami tuzish bo'yicha komissiya bo'ldi. Komissiyaning chaqirilishi qonunlarni to'plab, tartibga solish zaruriyatidan kelib chiqqan edi. Chunki amaldagi 1649 yilgi Qonunlar majmui to'plami shubhasiz eskirib ketgan bo'lib, Pyotr I dan boshlab, ko'plab yangi Qonunlar bilan to'ldirilgan edi.

Komissiya deputatlarini saylash sof tabaqali tavsifda bo'lishi kerak edi. Dvoryanlar (pomeshchiklar) deputatlarni har bir uezddan saylashar, shaharliklar har shahardan bir deputat saylar edilar. Ruhoniylarga Sinoddan bittagina deputat saylash huquqi berildi. Hukumat esa har bir markaziy davlat

organidan bittadan deputat yo‘llar edi. Kazaklardan deputatlar sonini «davra», ya’ni haqiqatda olganda oqsoqollar belgilar edi. «Begonalar»ni har bir «qabila»dan va viloyatdan deputat saylar edilar. Dehqonlardan ham hamqo‘rg‘onlar, «eskidan xizmat kilgan odamlar» qora so‘qachilar va yasoq to‘laydiganlar, ya’ni faqat davlat dehqonlari deputat saylar edilar.

Biroq davlat dehqonlari uchun ham kuplab cheklashlar belgilangan edi. Yosh tsenzi oshirilgan va saylovlarning ko‘p pog‘onaligi belgilangan edi.

Har bir deputat bir yoki bir nechta nakaz olib kelardi. Ko‘pchilik nakazlar dehqonlarga tegishli edi. Komissiya o‘z faoliyatida Ekaterina tomonidan yozilgan maxsus «Nakaz»ga amal qilishi kerak edi.

1767 yil yozida Moskvada Pugachyovning bo‘lajak «tinchlantiruvchisi» A. I. Bibikov «marshalligi» ostidagi Komissiya o‘z faoliyatini boshladi.

Komissiyada muhokama qilingan asosiy masala dehqonlar masalasi bo‘ldi. Pomeschiklar dehqonlarning ommaviy qochishlari va «gapga kirmasliklaridan» shikoyat qilishar hamda keskin choralar ko‘rishni talab etishardi. Biroq, dvoryan deputatlardan ayrimlari, masalan, Kozlovsk uezdidan deputat Grigoriy Korobin krepostnoylik sistemasining shafqatsizligini keskin tanqid qilib chiqdi. U dehqonlarning qochish sababi «ko‘p jihatdan o‘z boshqaruvlari bilan ularga ko‘p og‘irliklar solayotgan pomeschiklardir» dedi. Korobin, shuningdek, dehqon ko‘chmas mulkka ega bo‘lishi kerak, uning majburiyatlari esa tartibga solinishi kerak deb hisoblar edi. Korobinni ba’zi dvoryan va dehqon deputatlari qo‘llab-quvvatladi. Dehqonlarga bunday qarash ko‘pchilik dvoryan deputatlarning keskin qarshiligiga uchradi. Dvoryanlar dehqonlar, er, er boyliklari, ya’ni sanoat faoliyati monopoliyasiga egalik qilishning alohida huquqlarini talab qilib chiqishdi, o‘zlarining toifa siyosiy tashkilotlarini tuzishga, mahalliy ma’muriyatni dvoryanlar qo‘liga berishga va hokazolarga harakat qilishdi. Yaroslavl dvoryanlarining deputati knyaz M. M. Shcherbatov dvoryanlar mafkurasining eng ko‘zga ko‘ringan vakili edi. Savdogarlarning mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotida o‘sib borayotgan ahamiyati shahar deputatlarining savdogarlarning eski huquqlarini

mustahkamlashnigina emas, balki ularni kengaytirishni, savdogarlarni savdo qiluvchi dvoryanlar raqobatidan himoya qilishni qattiq talab qilishlarida ko‘rinmoqda edi.

Davlat dehqonlari turli guruhlarining deputatlari soliqlar va majburiyatlarni engillashtirishni, ma‘murlar o‘zboshimchaligiga chek qo‘yishni iltimos qilishdi. Biroq, ularnigina emas, balki hatto savdogarlar vakillarining ham iltimosiga hukumat e‘tiborsiz qaradi

Ammo Ekaterina Komissiyaga ehtiyoj sezmay qo‘ydi va 1768 yilda Turkiya bilan boshlangan urushni bahona qilib, uni tarqatib yubordi.

Ekaterinaning «liberal» iboralari bu davrda jonli tovush bo‘lib qoldi: hukumatning siyosati krepostnikligicha qoldi. Aynan «ma‘rifatli absolyutizm» davrida imperatritsani «ishga aloqasi yo‘q arzgo‘ylik», ya‘ni janoblardan shikoyat qilish bilan «ovora qilishni» taqiqlovchi, itoat etmaganlarga qamchi va katorga bilan xavf soluvchi farmon (1762), pomeschiklarga o‘z xohishlaricha «qo‘pol ahvollari» uchun dehqonlarni katorgaga jo‘natishga ruxsat beruvchi farmon (1765), dehqonlarga o‘z janoblaridan shikoyat qilishni va «tuhmat»ni taqiqlovchi, katorga bilan jazolashni ko‘zda tutuvchi farmon (1767) chiqarildi.

Krepostnoylikning kuchayishi mamlakatda ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keldi. Bu ziddiyatlar dehqonlar urushida o‘z ifodasini topdi. 1773—1775 yillardagi ulkan xalq harakatida dehqonlar, Uraldagi kon zavodlarining ishchilari, Volga va Ural bo‘yidagi xalqlar hamda kazaklar qatnashdi.

Dehqonlar urushining uchqunlari hamma joyda alanga olib turar edi. Dehqonlar pomeschiklarni va votchina ma‘muriyatining vakillarini o‘ldirishar, usadbalarni yondirishar, «janobning mulklarini» bo‘lib olishar, qo‘shinlar bilan chinakamiga jang olib borishar edi. Birgina Moskva gubernyasida 1764 yildan 1769 yilgacha 30 pomeschik o‘ldirildi. Pomeschiklarni o‘ldirish to‘lqini 60- yillar oxiri va 70- yillar boshida Volga bo‘yiga ham yoyildi.

Dehqonlar kurashining shakli qo'zg'olon edi. Un yil (1762—1772) ichida Moskva, Tula, Voronej, Nijegorod, Qozon va Peterburg gubernyalarida dehqonlarning 50 dan kam bo'lmagan qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. 60-yillarda Rossiyaning Evropa qismida 122 ta dehqonlar qo'zg'oloni bo'ldi.

Ural kon zavodlarining ishchilari 1773—1775 yillardagi qo'zg'olonning eng faol kuchlaridan biri bo'ldi. Ular orasida zavodlarga biriktirib qo'yilgan davlat dehqonlari, Senatning farmoni bilan zavodlarga berilgan krepostnoylar, davlat masterovoylari va ixtiyoriy yollanuvchilar bor edi. XVIII asr ikkinchi yarmida zavodlarga biriktirib qo'yilgan davlat dehqonlari 140 ming kishidan ortiq edi. Qarzdorlik «aybi borligi» uchun hukumatning ruxsati bilan zavodlarda doimiy yashashga o'tkazilgan dehqonlar soni ular orasida doimiy ravishda oshib borar edi. Ish haqi ularning yashash manbaiga aylanadi va kon zavodlari ishchilarining qo'zg'olon vaqtidagi talablaridan biri ish haqini oshirish talabi bo'ldi. Eski joylarida qolgan biriktirilgan dehqonlar uydan zavodgacha bo'lgan yo'lda ketgan kunlar uchun haq talab qilishar, ish haqini oshirishni yoki shunchaki zavodlardan xat yozib yuborishni so'rashar edi.

Kon zavodlari ishchilarining ahvoli nihoyatda og'ir edi. Ishchilarning ko'pchilik qismini tashkil etuvchi biriktirilgan dehqonlar 12—14 soatlik ish kuni uchun 6—8 tiyindan olar edilar, sovuq, zax, qorong'i shaxtalarda yoki pech va ko'ra (temirchilik o'chog'i) oldidagi haddan tashqari issiq va dimlikda ishlardilar.

5 mavzu. XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi choragida Rossiyaning ichki siyosati

Pavel I ning (1796—1801) ichki siyosati tarix fanida qarama-qarshi baho oldi. Ko'pchilik tarixchilar Pavelda telba mustabidni ko'rdilar va uning davrini «qo'rquv podsholigi» deb hisobladilar, faqat ayrimlargina uning harakatlarida ma'lum siyosiy yo'nalishni ko'rdilar.

Pavel ,o'zi lozim ko'rgandek harakat qilish huquqini qo'lga kiritgach, goh

mansabdorlar va ofitserlardan «qorongʻilik ruhini» topib, goh Kostyushko, Novikov, Radishchevni ozod qilib, onasidan oʻziga xos qasos ola boshladi. Lekin bu unga 4 yil ichida dvoryanlarga 600 ming dehqonni taqsimlab berishga hech bir xalaqit bermadi. Bu bilan u 34 yillik podsholigi davrida bu miqdordan atigi 200 ming dehqonni dvoryanlarga taqsimlab bergan onasidan oshib tushdi.

Pavel I ning farmoni (1797 yil) ogʻir jazo berish dahshati bilan barcha dehqonlarga oʻz xoʻjayinlariga itoat qilish va ularga quloq solishni taklif etdi. Pavel I hukumati, shu bilan bir qatorda, dam olish kunlarida barshchina ishlarini taqiqladi va pomeschiklarga uch kunlik barshchina bilan qanoat qilishni tavsiya etdi. Xuddi shu yili qoʻrgʻon kishilarini va ersiz dehqonlarni «kim oshdi» qilib sotishni taqiqlovchi farmon chiqdi, bir yildan keyin esa yangi farmon ersiz ukrain dehqonlarini sotishni taqiqlashni yoydi. Bunga qarama-qarshi ravishda 1798 yilda savdogarlarga oʻz zavodlariga dehqonlarni erli va ersiz sotib olishga ruxsat etildi.

Pavelning tuturiqsizligi, jazava tutishi va asabiyligi bilan birga qoʻshilib, uning podsholigiga despotizm tavsifini bergan «temir novda» siyosati boshlandi.

Rossiyada fransuz inqilobi gʻoyalarining tarqalish xavfi Pavel hukumatini butun mamlakatga mushtrali (m u s h t r a — koʻr-koʻrona intizom asosiga qurilgan qoʻpol harbiy mashq usuli), subordinatsiyali (subordinatsiya — xizmatda kichik unvonlilarning katta unvonlilarga boʻysunish qoidasi), vaxtparadli, kaltak intizomli prus-politsiyachilik kazarma tartibini yoyishga majbur etdi. Bu tartib Gatchinadayoq (Pavelning taxtga oʻtirgangacha boʻlgan qarogohi) shakllangan edi.

Bu tartib Ekaterina davrining susayishiga koʻnikib qolgan dvoryanlarga ham daxldor edi: Pavel dvoryanlarning xizmatidan koʻra, ularning «huquq va imtiyozlari» bilan koʻproq shugʻullangan onasidan, «birinchi pomeschik»dan farq qilgan holda oʻzi juda qadrlagan katta bobosi Pyotr I- ning odati va amaliyotiga murojaat qildi. Dvoryanlar imtiyoz va susaytirishlarsiz, Pavelning

fikricha vaziyat talab qilganidek xizmat qilishlari kerak edi. Dvoryanlarni uzoq muddatli ta'tillardan polklarga qaytarishdi, kichik yoshli dvoryanlarni polklardan bo'shatishdi, ofitserlarni, askarlarni mushtra, harbiychasiga qadam tashlashga o'rgatishga majbur etishdi. Vaxtparadlar va platsparadlar ofitserlar uchun katta xavfga aylandi, chunki mushtra va qadam tashlashning jonboz ixlosmandi, nizomlarni aniq bajarishni talab qiluvchi Pavel har bir mayda narsadan g'azablanib ketardi va paraddan to'ppa-to'g'ri Sibirga borib tushish juda oson edi.

Unter-ofitserlarning ofitserlikka o'tishi taqiqlab qo'yildi, dvoryan bo'lmagan ofitserlar esa xizmatdan chetlatildi.

Bu bilan Pavel krepostniklik tartiblariga Ekaterina II dan kam bo'lmagan darajada ixlosmand ekanligini yana bir marta ko'rsatdi.

Pavel davrida 1785 yilgi «Dvoryanlarning in'om yorlig'i» buzildi. Endilikda dvoryanlarning yig'inlari gubernator yoki Senatning general-prokurori nazorati ostida o'ta boshladi, gubernya yig'inlari esa umuman o'tkazilmay qo'yildi.

Dvoryanlarning jamoa bo'lib podshoga ariza yozishi taqiqlandi. Ayrim hollarda dvoryanlarga tan jazosi berila boshlandi.

Bu chora-tadbirlarning hammasi, Pavel hukumatining fikricha dvoryanlarda podsho oldida qo'rquv va izzat-hurmat uyg'otishi, temir intizom o'rnatishi kerak edi.

Pavel uchun podsho hukumatining ilohiyligini bo'rttirishga intilish xosdir. U hamma narsani, hatto aholi hamma tabaqalarining turmushini reglamentlashtirishni, markaziy muassasalar boshqaruvidagi kollegiyachilikning so'nggi elementlarini tugatishni, butun hokimiyat va boshqaruvni o'z qo'lida to'plashni, rus armiyasining milliy ko'rinishlarini tugatishni, uni «pruslashtirishni» xohlar edi.

Pavelning o'zboshimchaligi va takabburligi saroyda, armiyada va oliy muassasalarda ertangi kunga ishonchsizlik vaziyatini yaratar edi. Poytaxt dvoryanlari muhitida Pavel va uning atrofida gilardan norozilik paydo bo'la

boshladi.

Pavel I ichki siyosatidagi yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar hukumatning har qanday muxolifatga, liberalizmga ishora qilishga, mustaqillik va erkinlikka intilishga nafrat bilan qarashidan kelib chiqqan qo'rquv bilan izohlandi. Pavel uchun rus taxtining taqdirini hal "qiluvchilar — gvardiyachilar (u ularni yomon ko'rar edi) ham, isyonchi dehqonlar ham, rus «erkin fikrlovchilari» ham, fransuz yakobinchilari va sankyulotlari ham «g'alayonchilar» bo'lib ko'rinar edi.

Ozodlik harakati ilg'or g'oyalari qarshisida vahimali qo'rquvga tushish shu darajaga borib etdiki, rus so'zligidan «obshestvo» («jamiyat»), «predstavitel» («vakil») singari so'zlar chiqarib tashlandi, kiyimlardan inqilobiy Fransiya bayrog'iga ishora qiladigan qizil, ko'k, oq ranglarning birga qushilishi quvildi, xususiy bosmaxonalar yopildi, qattiq tsenzura jorii etildi, chet eldan kitoblar keltirish taqiqlandi.

1801 yil 12 martga o'tar kechasi imperator Pavel fitnachi dvoryanlar tomonidan o'ldirildi. Pavelning podsho shaxsini ko'klarga ko'tarish, politsiya o'zboshimchaligini kuchaytirish choralari bilan imperator hokimiyati obro'sini oshirishga urinishi, cheksiz ma'muriy vasiylik poytaxt dvoryanlari yuqori tabaqa guruhlari orasida norozilik chiqishiga sabab bo'ldi. Ular Pavelni armiyani «pruslashtirish»ga berilib ketganlikda, shuningdek podsholigining so'nggi yillaridagi tashqi siyosat Rossiyaning tashqi bozordagi asosiy kontragenti, rus pomeshchiklari xom ashyosi va g'allasining asosiy xaridori bo'lgan Angliya bilan iqtisodiy aloqalar uzilib kolishiga olib kelganligida aybladilar.

N. Muravyovning «Konstitutsiya»si loyihasiga ko'ra Rossiya to'ntarilishdan keyin konstitutsiyali monarxiyaga aylanib, imperatorda «davlatning oliy amaldorligi», ijroiya hokimiyati saqlab qolinishi kerak edi. Muravyov mamlakatni boshqarishni tashkil etish sxemasini Pesteldan bir qadar boshqacha tasavvur qilardi:

Imperator («qulay» bo‘lsin uchun umrbod ijroiya hokimiyati)

Xalq vechesi(qonun chiqaruvchi hokimiyat) Ikki palatadan iborat: ikki yilga saylab qo‘yiladigan O l i y d u m a; Xalq vakillari palatasi (vakillarning uchdan bir qismi har ikki yilda yangidan saylanadi).

Rossiya federatsiyasi 14 davlat va ikki oblastdan iborat bo‘lib, unda oliy hokimiyat —

Hokimi davlat (uning noibi va maslahatchisi) — davlatdagi ijroiya hokimiyati

Qonun chiqaruvchi majlis

Ikki palatadan iborat: bir yilga saylanganlar palatasi;

a’zolarining to‘rtidan biri har yili yangidan saylanadigan Davlat dumasi .

6 mavzu. XIX asrning ikkinchi choragida

Rossiyaning ichki siyosati

Nikolay I-ning 1825 yili Peterburgdagi Senat maydonida dekabristlarni jazolashdan boshlanib 1855 yili fojiali Sevastopol mudofaasi kunlarida tugagan o‘ttiz yillik podsholik davri bo‘ldi. SHaxsan podshoning dekabristlar ishini tergov qilish san’atini ishga solib o‘tkazilgan sinchiklab tekshirish natijasida yashirin inqilobiy jamiyatlarning faoliyati to‘la fosh qilindi, qatnashchilarning hammasi topib olindi. Hukumat «jinoyatchilar»ni jazolash bilan birga, olingan materiallar asosida o‘zi uchun amaliy xulosalar ham chiqardi. Birinchidan, hukumat «ichki tartib»ni saqlash sistemasini mustahkam negizga qo‘yib va har ishga qodir qilib, uni tubdan qayta tuzishga qaror qildi. Ikkinchidan, u mamlakatdagi siyosiy tartibning ojiz tomonlarini aniqlab olib, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo‘lgan choralar ishlab chiqish niyatida edi. Bunday materiallarni birinchi navbatda aynan shu dekabristlar ustidan olib borilgan tergov ishlarining natijasi berdi. Podsho uchun «Yovuz niyatli jamiyat a’zolarining davlatning ichki ahvoli to‘g‘risidagi ko‘rsatmalari

to‘plami» tayyorlandi.

Siyosiy ayg‘oqchilik va yashirin politsiya organlari Rossiya imperatorining bevosita nazorati ostiga olindi. «Hazrat oliylari xususiy kanselyariyasi» huzurida III Bo‘lim ta’sis etilib, uning zimmasiga siyosiy nazorat vazifasi yuklandi va unga jazo sistemasi organlari ustidan hamda mamlakatdagi tartibni kuzatib turish bo‘yicha keng huquq va hukmronlik berildi. Aslida bu davlat markaziy muassasalari—Senat, Davlat kengashi, ministrlklar ustida turgan oliy organ edi. III Bo‘limning maxsus harbiy-siyosiy kuchi sifatida jandarmalar korpusi tuzilib, bu butun Rossiyani qamrab olgan beshta okrugga bo‘lingan zdi. Jandarmalarning boshqaruvchisi va boshlig‘i sifatida Boltiq bo‘yilik nemislardan chiqqan general Benkendorf III Bo‘limga boshliq qilib qo‘yildi.

Matbuot, maorif, fan Nikolay siyosati xurujiga uchragan ob’ektlar bo‘lib qoldi. 1826 yilda joriy qilinib, «cho‘yan nizom» nomini olgan tsenzura nizomi, matbuotda «zararli yo‘nalish» bo‘lmasligi uchun, uni jilovlab qo‘yishi kerak edi. Bu nizomda aytilishicha, matbuotda ma’murlarga qarshi «g‘azab uyg‘otuvchi» tavsifdagi, «kerakligicha izzat-ikromni susaytiruvchi» materiallar bo‘lmasligi, ma’murlar faoliyatiga o‘zgarishlar kiritish haqidagi loyiha va takliflarga, Rossiyadagi tashqi siyosiy ishlar va hokazolarga o‘rin berilmasligi kerak edi. Falsafiy kitoblarda «eng yangi davrning behuda va zararli safsatabozliklari» uchrashi mumkin bo‘lgani uchun, bunday kitoblar chop etish man etilgan edi. Tsenzorlarning faoliyati III Bo‘lim vazifalari bilan tamoman bog‘liq edi.

Keyinchalik, 40-yillarga borib, «fitna»ga qarshi kurashish uchun «cho‘yan» tsenzura nizomi ham kamlik qilishi ma’lum bo‘lib qoldi. Tsenzura ustidan yashirin nazorat qilib turish uchun doimiy maxfiy qumita tuzildi. U o‘z raisining nomi bilan Buturlin qumitasi deb atala boshladi. Ikki yoqlama tsenzura qaror topib, bulardan biri kitob va vaqtli matbuot chop etilishidan oldin ularni ko‘rib chiqadigan amaldorlardan iborat ehtiyot tsenzurasi bo‘lsa, ikkinchisi bosmadan chiqqan mahsulotni ko‘radigan, Nikolay podsholigining

oxiriga qadar taraqqiyparvar tafakkurni shafqatsiz bo'g'ib kelgan Buturlin qumitasidan iborat jazolash tsenzurasi bo'ldi.

Maktab va oliy o'quv yurtlarini Nikolay, yoshlarda tahsil ko'rish va mustaqil mutolaa qilishdan hosil bo'ladigan hurfikrlilik tarqatuvchi joylar, deb bilardi. Shuning uchun o'quv yurtlarida ta'lim berish «o'quvchilarning ehtimol tutilgan bo'lajak kasbi-koriga moslab», ya'ni ota-onalarining ijtimoiy ahvoliga moslab, qat'iy cheklangan qolipga solib qo'yildi. 1828 yil nizomiga binoan «eng past tabaqa» kishilari (dehqonlar va boshqalar) uchun cherkov maktabi; savdogarlar, hunarmandlar va umuman shaharlik «obivatellar»ning bolalari uchun uezd bilim yurtlari, dvoryanlar va amaldorlarning bolalari uchun esa gimnaziya mo'ljallangan edi. Maktab ta'limining har qaysi bosqichida beriladigan bilim doirasi anchagina cheklangan, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish esa nazarda tutilmagan edi.

Universitetlar va oliy maktablar ustidan, umuman akademik hayotning hamma tomonlariga taalluqli, politsiya ruhidagi doimiy nazorat o'rnatildi. Xalq maorifi ministri Uvarov tuzgan Universitetlar nizomida universitetlardagi yangi tartib aniq belgilab berilgan bo'lib, bu tartibga binoan professorlar kollegiyasining vazifa doirasi nihoyat darajada toraytirib tashlandi va bu ishlarga vasiylik qiluvchi o'quv okrugi boshlig'ining hukmronligi kollegiyadan yuqori qo'yildi. Universitetlarga o'qish haqi oshirilib, talabalar kontingenti qisqartirildi. Universitetlarda 40-yillar oxirida fuqarolik huquqi va falsafa darslari olib tashlanib, falsafa ilohiyot darsiga qo'shib o'tiladigan bo'ldi.

7 mavzu. XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi

XVIII asrda ko'zga tashlangan krepostnoylikning emirila-boshlashi XIX

asr birinchi choragida aniqroq namoyon bo'ldi. Ishlab chiqarish usulining asosiy belgilari sifatida natural xo'jalik va qoloq texnika, pomeschchikning erga monopol egaligi dehqonlarda ayrim ishlab chiqarish vositalari bo'lishiga qaramay, ularning pomeschchikka shaxsiy qaramligi tufayli dehqonning pomeschchikka noiqtisodiy majburiyatida bo'lishi, qishloq xo'jaligida XIX asr birinchi choragida ham hukmronlik qilishda davom etdi.

Pomeschchik xo'jaligida mashinalar, yaxshilangan almashlab ekish, o'g'itni qo'llashga bo'lgan urinishlar tobora ko'proq qayd etila boshladi. Erkin iqtisodiy jamiyatning faoliyati ko'p pomeschchiklarning qishloq xo'jalik iqtisodiyoti, uning unumdorligini oshirish, daromadlilikini ko'paytirish maqsadidagi masalalarni o'ylab ko'rishi va muhokama qilishi zarurligining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqdi.

Yollanma ishchi kuchidan foydalanilgan holda xo'jaliklarning katta samaradorligi, uni joriy etish usullarini ratsionalizatsiyalashtirish, texnikani yaxshilash va boshqa masalalar o'rta qo'yildi. Faqat pomeschchiklarga emas, balki ayrim o'ziga to'q dehqonlar, ayniqsa davlatga qarashli dehqonlardan ba'zilar «yangicha», ya'ni agrotexnik yaxshilash asosida o'z xo'jaliklarini ko'tarishga intilish namunalarini ko'rsatisha boshlashdi.

Ukrainada (Poltava, Romnada va boshq.) qishloq xo'jalik mashinasozligining dastlabki zavodlari paydo bo'ladi. 1806 yilda hukumat tomonidan qishloq xo'jalik mashinalarini chet eldan bojsiz keltirishga ruxsat berildi. Katta rentabellik va'da qilgan yangi ekinlar paydo bo'ldi; qand lavlagi, kartoshka, ro'yan (Qavkazda), bug'doyning ekin maydoni ko'paydi. Qishloq xo'jaliginin yangi tarmoqlari: mayin junli qo'ychilik, uzumchilik va vinochilik kengaydi. O't ekish tajriba qilina boshlandi.

Lekin umuman olganda xo'jalikning daromadligini oshiruvchi yangiliklarni joriy qilishga bo'lgan intilishlarga qaramasdan qishloq xo'jaligida past mehnat unumdorligi saqlanib qoldi

Pomeschchik-dvoryanlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ratsional yo'lga qo'yishga urinishlari, odatda, muvaffaqiyatsiz chiqardi. Sarmoya zarur

edi, yangi texnik asosda ishlashga uquvi bo'lgan erkin ishchi qo'llari zarur edi, xo'jalikni bunday olib borish uchun asosan umumiy, qulay iqtisodiy sharoitlar zarur edi. Krepostniklik mamlakatida esa bularning hammasi yo mavjud emas edi, yoki juda kuchsiz ko'rinishda edi.

XIX asr birinchi choragi davomida yirik korxonalar soni hamda ulardagi ishchilar soni ancha ko'paydi. 1804 yilda Rossiyada 95 ming ishchisi bo'lgan 2400 ga yaqin korxona mavjud edi, 1825 yilda esa ularning soni 210 ming ishchisi bor bo'lgan 5200 ta korxonaga etdi. Sanoatning ayrim ilg'or tarmoqlarida katta yutuqlar ko'zga tashlandi: chunonchi, ip-gazlama korxonalarining soni deyarli uch marta, ulardagi ishchilar soni esa deyarli 100 marta, shakar zavodlari — besh marta, ulardagi ishchilar soni esa 16 marta ko'paydi. Sanoatda ixtiyoriy yollanuvchi ishchilar sonining o'sib borishini tavsifli deb hisoblamoq kerak. 1825 yilda butun sanoatda ishchilarning yarmidan ko'pi ixtiyoriy yollanganlar edi. Ip-gazlama sanoatida bundaylar 95% ni, teri sanoatida - 93%ni, shoyi sanoatida - 83% ni tashkil etardi. Ixtiyoriy yollangan ishchilarning mehnat unumdorligi krepostnoy ishchilarning mehnat unumdorligidan ancha yuqori edi. Krepostnoy mehnatga asoslangan korxonalar (votchina, posession manufakturalar) yopila boshladi, ularning soni ancha kamayib ketdi.

Sanoatning texnik takomillashishi yangi uskunalarning qo'llanilishida o'z ifodasini topdi.

1807 yilda birinchi mexanik to'quvchilik stanogi (Aleksandrovsk manufakturasida) o'rnatildi. Chitga gul bosish kasblarida mashinalar joriy qilina boshlandi. 1817 yilda moskvalik fabrikachi Mixail Veber chitga va qog'ozga gul bosadigan silindrli mashinaga imtiyoz oldi. Shuningdek, o'ziga xos qishloq sanoat markaziga aylangan Ivanovo ham misol bo'lishi mumkin. 1825 yilda unda 125 ta yirik chitga gul bosuvchi va ip-gazlama fabrikalari bo'lib, ularda stanoklar va gul bosuvchi stollar keng qo'llanilar edi. Rus sanoati chet eldan takomillashgan asbob-uskunalar va mashinalarni kuchaytirilgan tarzda keltira boshladi. 1815—1816 yillarda 83 ming rubllik

(assignatsiyalarda), 1825 yilda esa — 825 ming rubllik (assignatsiyalarda) asbob-uskuna va mashinalar keltirildi. Sanoatda yollanma mehnatni qo'llanishning o'sishi va yaxshilangan texnika ishlab chiqarishidan foydalanishning kuchayib borishi Rossiyada sanoat to'ntarishi boshlanganligining darakchisi edi.

Manufaktura ko'rinishidagi yirik sanoatning o'sishi va fabrika turdagi korxonalarning paydo bo'lishidan tashqari shahar hunarmandchiligi turdagi mayda kasblarning va mayda dehqon kasb-hunarining rivojlanishi ham sanoatda yuksalishdan dalolat berar edi. XIX asr birinchi choragining oxiriga kelib mamlakatning Evropa qismi markazida oddiy, bozor kooperatsiyasiga ishlaydigan turdagi dehqon sanoat korxonalari keng miqyosda o'sdi. Birgina Vladimir gubernyasida bunga o'xshash korxonalar 300 dan oshiq edi; ulardan to'rtidan bir qismigina yollanma mehnatni qo'llanmasdan, ya'ni kustar va uning oilasining kuchi bilan ishlar edi. Ixtisoslashtirilgan hunarning ayrim markazlari mustahkamlanadi: Pavlovo — metall ishlab chiqarishga, Ivanovo — to'qimachilik bo'yicha, Kimra — poyabzal tayyorlashga ixtisoslashdi.

Umuman olganda mehnatni taqsimlash geografiyasining kengayib borishi, qishloq xo'jalik va sanoat rayonlarining ixtisoslashishi, aholining o'sishi, ichki bozorning kengayishi, tashqi savdo aloqalarining oshishi tufayli mamlakat iqtisodiyotining yuksalishga tomon umumiy harakat har o'n yillik sayin sezilarli bo'lib bormoqda edi.

Shu bilan bir vaqtda, bu harakatning yo'liga g'ov bo'lib turgan to'siqlar ham aniqroq ko'rina boshladi. Ular umumiy sur'atni sekinlashtiribgina qolmasdan, balki sanoatning ayrim tarmoqlarini turg'unlik va inqirozga giriftor qilar, umuman mamlakatni Evropaning boshqa mamlakatlaridan iqtisodiy rivojlanishda orqada qolishga olib kelar edi.

Ichki bozorning usishi va tashqi savdo aloqalarining kengayishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichi bo'ldi. XIX asr boshida Rossiyaning ichki savdo aylanmasi 900 mln. rublni, tashqi savdo esa - 235 mln. rublni tashkil etgan. Ichki savdo yarmarkalar shaklida yuz berardi. Evropaning tashqi

bozoriga Rossiya qishloq xo'jalik mollari: yog', zig'ir, kanop losi, teri, yog'och, g'alla etkazib beruvchi sifatida kirdi. Rossiya Osiyodagi chegaralar orqali (Xitoyga, O'rta Osiyoga, Yaqin Sharqqa) sanoat buyumlari; ip-gazlama, metall mollarni chetga chiqara boshladi.

Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi va o'sib borayotgan mahsulot aylanmasining ehtiyojlari transport imkoniyatlarining yaxshilanishini talab etardi. Mamlakatning ayrim rayonlari o'rtasidagi savdo aloqalarida suv yo'li va ot-arava transporti asosiy rol o'ynar edi. Suv yo'lini yaxshilash uchun XIX asrning boshida Kamani Shimoliy Dvina, Nemanni Dnepr bilan bog'lovchi qator yangi kanallar qurildi; Marian va Tixvin sistemalari qayta quriladi: paroxodchilik tug'ildi. 1813 yilda Berd zavodida birinchi paroxod qurildi. Quruqlikdagi yo'llarni yaxshilashga ham e'tibor berildi. SHosse yo'llari qurila boshlandi. Jumladan, Moskva mamlakatning muhim iqtisodiy markazi sifatida Peterburg, Xarkov, Nijniy Novgorod, Ryazan bilan shosse yo'llari orqali bog'langan edi.

Rivojlanishi barcha boshqa tarmoqlarning yanada yuksalishiga ko'maklashishi kerak bo'lgan sanoatning muhim tarmog'i temir ishlab chiqarish o'z harakatida deyarli to'xtab qoldi: u 1801 yilda 9 mln. pud, 1825 yilda esa — 10 mln. pud cho'yan berdi. Temir qazib olishda texnik taraqqiyot deyarli yuz bermagan Ural asosiy rayon edi. Majburiy mehnat va noiqtisodiy majburiyat juda uzoq vaqt hukmronlik qildi. Sanoatning krepostnoy mehnat ustunlik qilgan boshqa tarmoqlari (movut, oynasozlik va boshqalar) ham turg'unlikda edi.

Aloqa yo'llari mamlakatning murakkablashib borayotgan xo'jaligi ehtiyojlariga deyarli batamom mos kelmas edi.

8 mavzu. Rossiya Aleksandr II islohotlari davrida

Rossiya imperiyasining aholisi soʻnggi oʻttiz yil ichida 35% koʻpayib, 1858 yilda (oʻninchi reviziya boʻyicha) 73 mln. kishiga teng edi. Aholi tarkibi ham oʻzgardi. Shahar aholisi mutlaqo va nisbatan oʻsdi: 1858 yilda 6,8 mln. shahar aholisi 9,1% ni tashkil etdi. Aholining ijtimoiy tarkibida ham katta oʻzgarishlar roʻy berdi. Krepostnoy dehqonlarning soni umuman oʻsgan boʻlsada, uning salmogʻi pasaydi: XVIII asrning oxirida krepostnoy dehqonlar 45% ni, 1858 yilda esa 37,5% ni tashkil etdi. Dehqonlar oʻrtasidagi mulkiy tengsizlik endi ijtimoiy tabaqalanish tusini olayotgan edi. Er egalari boʻlgan dehqonlarning soni koʻpaya bordi. 1858 yilda ularning soni qariyb 270 ming kishi boʻlib, bir million desyatnadan koʻproq erga egalik qildi. Dvoryanlar erlarining zavodchilar, savdogarlar, meshchanlar va dehqonlar qoʻliga oʻtishi jarayonining kuchayishi dvoryanlarning erga monopol egalik qilish huquqlarini zil ketkizmoqda edi. Pomeshchik-dvoryanlar orasida tabaqalanish jarayoni keskin koʻzga tashlandi —yirik pomeshchik er egaligi kuchaydi, er mulki uncha katta boʻlmagan dvoryanlar vayron boʻla boshladilar. 1858 yilga kelib, hamma dehqonlarning 2/3 qismi bilan birga dvoryanlar egaliklarining 2/5 qismi garovga qoʻyilgan edi. 1835 yildan 1858 yilga qadar krepostnoy dehqon egalarining soni 127100 kishidan (8-reviziya) 103880 kishiga (10-reviziya) tushib qoldi.

Shahar aholisi tarkibida meshchanlar tabaqasi ancha oʻsdi. Bu tabaqa hunarmandlar, mayda savdogarlar hamda erkin aholining boshqa toifalaridan iborat edi. Savdogarlar hamda sohibkor-sanoatchilar soni koʻpaydi. 1835 yilda savdogarlar tabaqasida 123796 erkak kishi boʻlgan boʻlsa, 1851 yilda ularning soni 180359 kishiga etdi.

XIX asrning birinchi yarmi mobaynida mamlakat iqtisodiyotida katta

o'zgarishlar yuz berdi.

Rossiya iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi hal qiluvchi ahamiyatga ega edi, chunki ishlab chiqaruvchilarning ko'pchilik qismi shu sohada ishlar edi. Rossiyadagi barcha tabaqalar erni erkin sotib olishi va sotishi mumkin emas edi, shuning uchun qishloq xo'jalik sohibkorligini takomillashtirilgan dehqonchilik va chorvachilik asosida rivojlantirish nihoyatda sekinlik bilan borayotgan edi.

Tovar-pul munosabatlari o'sgan sari pomeshchik xo'jaligi bozor bilan bog'lana boshladi. Qora tuproqli dehqonchilik Markazi (Tambov, Orlov, Qursk, Penza) gubernyalarida dehqonlar islohotida barcha dehqonlarning taxminan 70—80% barshchina o'tayotgan edi. Sanoati ancha rivojlangan rayonlarda pomeshchik obrokni tinmay oshirish yo'li bilan o'z daromadlarini ko'paytirishga intilar edi. Bu obrok endilikda XVIII asrdagidek rubl bilan o'lchanmasdan, o'nlarcha rubl, hattoki kumush yuz rubl bilan o'lchanar edi, bu esa obrok to'laydigan dehqonni o'z xo'jaligini qoldirib, pul ishlab kelish uchun chetga ketishga majbur qilar edi.

Rossiya iqtisodiyotining orqada qolganligi G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan taqqoslanganda ochiq ko'rindi. Chunki Rossiyada 50- yillarda bir desyatina erdan 4,63 chorak (sotiluvchi jismlarning qadimiy o'lchovi bo'lib, 8 pudga teng) hosil olingan bo'lsa, Fransiyada — 7,36 chorak, qoloq Avstriyada 6,6 chorak hosil olindi.

Aholisining 90% i qishloq xo'jaligida band bo'lgan Rossiyada hali krepostnoy mehnatning almisoqdan qolgan texnikasi hukm surar edi. Ammo XIX asrning dastlabki o'n yilliklarga qaraganda uning o'rtalariga kelib, eng yangi agrotexnika va qishloq xo'jalik mashinalarini ancha keng va ancha izchillik bilan qo'llanish yo'li bilan mehnat unumdorligini oshirish tendensiyasi ko'zga tashlandi. Janubdagi (Ukraina, Novorossiya), Rossiyaning g'arbiy gubernyalaridagi, Boltiq bo'yidagi yirik pomeshchik egaliklari sotish uchun g'alla etishtiradigan xo'jaliklarga aylantirildi. Janubiy va cho'l gubernyalaridagi koloniyalarda va ko'chmanchi dehqonlarda fermerlik tipidagi

xo'jalikni eslatuvchi xo'jaliklar rivojlana bordi.

Shimoldagi pomeshchiklar va o'ziga to'q dehqonlarning intensiv sutchilik xo'jaliklari vujudga keldi. Texnika va dehqonchilik ekinlarini takomillashtirish tadbirlari endi faqat pomeshchik xo'jaliklaridagina qo'llanib qolmasdan, balki ayrim dehqon xo'jaliklarida ham qo'llanadigan bo'ldi. Qishloq xo'jaligi ko'rgazmalarida dehqonchilikka xos ixtirolarni, masalan, Alekseev (Novgorodda) qurgan zig'ir yanchadigan mashinani, Xitrovning (Vyatka. shahrida) pichan o'radigan mashinasini va ko'pgina boshqa ixtirolarni, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlarining (javdari bug'doy, arpa va boshqa ekinlarning) yaxshilangan navlarini ko'rish mumkin edi. Dehqonlar dalachilikning yaxshilangan sistemalarini qo'llay boshladilar.

Qishloq xo'jaligida bu xildagi yangi usullar soni (mamlakat bo'yicha) u qadar ko'p emas edi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'payishiga aytarli ta'sir ko'rsata olmas edi (asrning ikkinchi choragida ekin maydonlarini kengaytirish yo'li bilan g'alla yig'ib-terib olish 20% o'sdi, shu vaqt ichida dalalarning hosildorligi atigi 0,5% oshdi). Ammo rejali va uzoqni ko'ra biladigan pomeshchiklar yangi usullarning zarurligini tan oldilar, bu yangiliklar boy dehqonlarning mayda tovar xo'jaligiga ham kirib bordi.

Mamlakatda ijtimoiy mehnat taqsimoti, pul munosabatlari hayotning barcha sohalariga kirib bordi. Fabrikalar va zavodlar ko'paydi: 1848 yildan 1858 yilga qadar ularning soni 9 mingdan 13 mingga ko'paydi, ulardagi ishchilarning soni 400 mingdan 525 mingga etdi. Fabrika va zavodlar kasibkorlik va manufakturani birma-bir siqib chiqara boshladi. Qo'l mehnatini mashina bilan almashtirish jarayoni XIX asrning 30-yillaridan tez rivojlana boshladi, bu rivojlanish sanoatning yangi tarmoqlariga yoyildi.

Ip gazlama sanoatida 50- yillarning oxiriga kelib ip yigirish qariyb to'lig'i bilan, chitga gul bosish esa ko'p darajada mexanizatsiyalashtirildi; to'qimachilikda ham qo'l mehnati siqib chiqarila bordi. Sanoatning yangi tarmoqlari — yozuv qog'ozi, lavlagidan qand ishlab chiqarish mashina texnikasini qo'llanish asosida rivojlandi: 50- yillarning boshlarida bu

tarmoqlarda bug‘ dvigatellarini qo‘llanadigan zavodlar barcha mahsulotning yarmidan ko‘pini berar edi. Hatto qoloq kon sanoatida bug‘ mashinalari va dastlabki suv turbinalari bunyodga keldi; metallurgiyada qolipsiz cho‘yan quyish o‘rnini yaxlit-yaxlit qilib qoliqli cho‘yan (pudlinglash) ishlab chiqarishi egallay boshladi. 1860 yilga kelib quyiladigan cho‘yanning deyarli yarmini pudling pechlari bera boshladi. Chet eldan mashinalar keltirish 1840 yildan 1851 yilgacha 2,5 baravar o‘ydi. Sanoat mahsulotining hajmi yildan-yilga o‘tib bordi, bunda mexanizatsiyalash darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarda o‘sish sur‘atlari ham yuqori bo‘ldi. Cho‘yan eritish 1840 yildan 1861 yilga qadar taxminan 1,5 baravar, ip gazlama ishlab chiqarish 3 baravar ko‘paydi.

Rossiyadagi sanoat mahsulotining o‘sish sur‘ati 1860—1880 yillarda Angliya, Fransiya, Germaniyadagidan yuqoriroq va AQSH dagi singari edi. Qo‘l mehnatini birin-ketin mashina bajara boshladi; mexanizmlar ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi takomillashtirib borildi. Sanoatda mehnat unumdorligi ham oshdi. Rossiya sanoati 60—70- yillarda olg‘a tomon g‘oyat katta qadam tashladi. Ammo Rossiyani G‘arbiy Evropadagi peshqadam mamlakatlarga taqqoslaganda uning sanoati faqat ishlab chiqarish miqyosi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori jihatidagina emas, balki texnika jihatidan va mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan ham hali bu mamlakatlarning sanoatidan orqada edi.

Mamlakatning taraqqiyoti uchun tavsifli bo‘lgan narsa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, ya‘ni og‘ir sanoatning rivojlanishi edi, bu rivojlanishni quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin:

Eng muhim sanoat tarmoqlari mahsulotlarining o‘sishi (million pud hisobida)

Yillar	Cho‘yan	Po‘lat	Toshko‘mir	Neft
1861	19,5	12,4	23,5	0,2

1881	28,7	21,2	213,3	40,4
------	------	------	-------	------

Po‘lat ishlab chiqarishda Ural ilgarigicha asosiy rol o‘ynardi, ammo bu ishlab chiqarish tarmog‘i Donbassda ham nihoyatda tez rivojlana boshladi: Donbassning tez vaqt ichida Uraldan o‘zib ketishi aniq edi. Toshko‘mir qazib chiqarishda Donbass birinchi o‘rinni egallab oldi. Kavkazda neft qazib chiqarilar edi (Boku), marganets rudasini qazib olishga kirishildi (Chiatura).

60—70- yillarda mashinasozlik sanoatiga asos yaratila boshlandi, bu sanoat islohotdan oldingi Rossiyada faqat qishloq xo‘jalik mashinasozligidan iborat edi. Peterburg va Moskva yirik mashinasozlik zavodlari (Nobel, Obuxov, Bromley, List, Veyxelt zavodlari va boshqa zavodlar) qurilishi markazi bo‘lib qoldi. Rossiyaning janubida (Xarkov, Odessa, Berdyanskda) qishloq xo‘jalik mashinalari ishlab chiqarishi juda katta yutuqlarga erishdi. Mashinasozlik sanoati mahsulotlari 3 marta ko‘paydi.

Rossiyada yirik fabrika-zavod sanoati bilan birga transport ham rivojlana boshladi. Temir yo‘llar qurishning va daryo hamda dengizlarda paroxod qatnovining tez rivojlanishi islohotdan keyingi davr uchun tavsiflidir. Temir yo‘llar qurilishi qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanishiga juda katta yordam berdi. Nihoyatda keyg territoriyasi va bir-biridan uzoq har xil iqtisodiy rayonlari bo‘lgan Rossiyada temir yo‘llar ichki bozorni kengaytirish uchun va mamlakatni jahon bozori bilan savdo aloqalarini kuchaytirish uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega edi. Temir yo‘l qurilishi sanoatni rivojlantirishning qudratli omili bo‘lib qoldi, chunki u juda kup miqdorda metall (relslar, vagonlar, parovozlar uchun yoqilg‘i, quruvchi-ishchilarning ulkan armiyasi uchun keng iste‘mol buyumlari) bo‘lishini talab qilar edi. Temir yo‘llarni qurish uchun sarmoya (pul) kerak edi va shu maqsad bilan ko‘pgina hissadorli jamiyatlar tuzildi.

60-yillar oxiri va 70-yillar boshi temir yo‘llar qurilishi g‘oyat avj olgan davr edi. Rossiyada temir yo‘llar tarmog‘i 1861 yildan 1881 yilgacha 1,6 ming kilometrdan 23,1 ming kilometrga etdi. Dastlabki qurilgan temir yo‘llar

mamlakatning iqtisodiy markazi bo'lgan Moskvani bir qancha muhim rayonlar, shaharlar (Kursk, Voronej, Nijniy Novgorod, Yaroslavl va boshqalar) bilan bog'ladi; keyin markaz bilan port shaharlari (Odessa, Rostov-Don, Riga) o'rtasida temir yo'l aloqasi o'rnatildi. Uralda temir yo'l qurila boshladi (Perm-Ekaterinburg).

Zo'r berib temir yo'llar qurishda (O'rta Osiyodagi, mamlakatning g'arbidagi) harbiy maqsadlar ham nazarda tutilgan edi.

Bug' kuchi bilan yuradigan suv transporti ancha o'sdi: daryolarda qatnagan paroxodlar 1860 yilda 399 ta bo'lgan bo'lsa, 1881 yilda 1200 taga etdi. Rossiyaning Evropa qismiga tutashgan asosiy dengizlarda (Qora dengiz, Boltiq dengizi va Oq dengizda) 1868 yili 51 ta kema qatnadi, 1881 yilda esa 170 ta kema qatnaydigan bo'ldi. Shunga muvofiq ravishda temir yo'l va paroxod transportining yuk oborati va passajir tashuvi ham ko'paydi.

1859—1861 yillardagi ijtimoiy vaziyat “inqilobga” aylanmadi.

60- yillarning “inqilobchilari” umid ko'zini tikkan eng asosiy kuch — dehqonlarning ommaviy chiqishlarining bostirilishi, u qadar katta bo'lmagan “xalq ishi uchun kurashuvchilar” safining bo'shashib ketishi, liberal jamoat tomonidan hukumatni qo'llab-quvvatlashi o'sha davrda hukumatga qarshi siyosiy kurashchilar kayfiyatiga ta'sir ko'rsatdi. Ulardan ko'pchiligi yaqin orada dehqonlar ommasining “inqilobiy” uyg'onishi mumkinligiga ishonchlarini yo'qota boshladilar.

1863—1866 yillarda Moskvada ishutinchilar to'garagi faoliyatida yangi sharoitlar yuzaga keganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Ishutinchilar (bu to'garak uning tashkilotchisi N. A. Ishutin nomi bilan shunday atalar edi) o'zlarini Chernishevskiyning izdoshlari deb hisoblar edilar, ular muvaffaqiyatsiz chiqqan Chernishevskiyning ozod qilish harakatini tayyorlashda ham ishtirok etdilar. Ularning aksariyati “ijtimoiy inqilob “haqida orzu qilardi; ularning tasavvuricha, ijtimoiy hayotni iqtisodiy jihatdan qayta qurish eng birinchi darajali vazifasiga aylanmog'i lozim edi. Ularning fikricha, iqtisodda to'ntarish yasashni tayyorlash uchun “sotsialistik g'oyalarni” targ'ib etish,

kollektiv mulkchilik va kollektiv mehnatning afzalligini ko'rsatish uchun amalda «ishlab chiqarish uyushmalari, namunali fermalar»ni yaratish lozim edi.

1865 yilda Ishutin to'garagi yashirin jamiyatni, uning «Tashkilot» markazini faollar bilan to'ldirish kerak bo'lgan yarim qonuniy «O'zaro hamkorlik jamiyati» ni tashkil etdi. «Tashkilot» a'zolaridan «Do'zax» guruhi tashkil etildi, unga terrorchilik tajribasiga suyanuvchi shaxslar kirdilar. «Do'zax» guruhida podshoni o'ldirish «ijtimoiy inqilob»ga turtki bera oluvchi voqea ekanligi masalasi qo'yildi. Mana shunday gap-so'zlar ta'sirida 1866 yilning aprelida to'garak a'zosi talaba Karakozov tomonidan Aleksandr II ga muvaffaqiyatsiz suiqasd uyushtirildi. Karakozov qatl etildi, ishutinchilar to'garagi esa tor-mor qilindi, Ishutinning o'zi surgunda o'ldi.

Karakozovning podshoga o'q uzishi «fitna» bilan kurash uchun maxsus choralar ko'rilishi sifatida foydalanildi va ta'qibning kuchaytirilishiga sabab bo'ldi. Ilg'or adabiyot va uning namoyandalariga hujum boshladi, bir qator jurnallar yopildi, yozuvchi va jurnalistlar qamoqqa olindi, o'zaro yordam kassalari hamda boshqa bezarar tashkilotlar, talabalarning to'garaklari qat'iy ta'qiqlandi. Politsiya, «nigilistlar» deb ataluvchi siyosiy jihatdan shubhali shaxslarni qadam-baqadam kuzata boshladi.

9 mavzu. XIX asr oxirida Rossiyaning ichki siyosati

Aleksandr II o'ldirilib, taxtga Aleksandr III chiqqandan keyin asta-sekin keskin choralar tarafdorlari yon berish va islohotlar o'tkazish tarafdorlaridan ustun chiqdilar. Yangi podshoning 1881 yil 8 martda ministrlar bilan o'tkazgan birinchi kengashida «maslahatchi komissiyalar»ni to'plash loyihasi muhokama qilinayotgan vaqtda Pobedonossev va Aleksandr III ning o'zi kengash qatnashchilarini, inqilob sharpasi bor, deb qo'rqitib va g'oyat

darajada g‘azablanib: bunday komissiyalarni to‘plash «konstitutsiyaga tomon qo‘yilgan birinchi qadam bo‘ladi»,—dedilar. Pobedonossev dasturli nutq so‘zladi, zemstvo va shahar mahkamalarini hamda yangi sud idoralarini «foydasiz gapxona» deb atadi va ularning huquqlarini kamaytirishni talab qildi.

8 martdagi kengashda har holda Loris-Melikov loyihasini muhokama qilish uchun maxsus komissiyaga topshirish haqida ko‘pchilik (7 kishi yoqlab va 5 kishi qarshi) ovoz bilan qaror qabul qilindi. Lekin bu komissiya to‘planmadi, «maslahatchi komissiyalarni» to‘plash loyihasi amalga oshmay qoldi. 1881 yilning 29 aprelida podshoning Pobedonossev tomonidan tuzilgan manifesti e‘lon qilindi, unda samoderjavie hokimiyatining mustahkamligi va uni yangi podsho «har qanday tajovuzlardan» muhofaza qilinishi aytilgan edi.

«Xalq erki»ning harakatlari dehqonlarni “inqilobga” otlantira olmadi. «Xalq erki»ning «asosiy ish», ya’ni podshoning o‘ldirilishi xalq qo‘zg‘olonini boshlab beradi, degan umidlari ham o‘zini oqlamadi. Yakka terrorchilik taktikasi g‘oyat zararli bo‘lgan xato taktika edi. «Xalq erki» partiyasi ijroiya qumitasining deyarli barcha a‘zolarini politsiya tutib qamoqqa oldi. Hukumat butun mamlakatda yashirin tashkilotlarga qarshi jazo choralarini qo‘llanishga kirishdi. Xalqerkchilar «davlat va jamiyat hayotining mavjud shakllarini qaytadan ko‘rib chiqishni» talab etib Aleksandr III ga xat yozgan edilar, hukumat bu xatga javoban 1881 yilda «Xalq erki» partiyasi ijroiya qumitasining ko‘pchilik a‘zolarini qatl qildi. Partiyaning qamoqqa tushishdan qutilib qolgan rahbarlari tor-mor qilingan ayrim to‘garaklar o‘rtasida yangidan aloqa o‘rnatishga harakat qildilar, ammo bu urinish muvaffaqiyatsiz tamom bo‘ldi. 1883 yilning fevralida ijroiya qumitaning eng so‘nggi a‘zosi Vera Figner politsiyaga tutib berildi.

Liberal zemstvochilar 1881 yilgi voqealar munosabati bilan podshoga bir necha «tabriknomalar» yozib, ularda juda oddiy talablar qo‘ydilar va yana islohotlar o‘tkazishni qattiq qistamadilar.

1881 yil 29 aprel manifestining mazmuni ma’lum bo‘lishi bilanoq, islohot

tarafdori bo'lgan ministrning hammasi iste'fo berdi. Ularning o'rniga nomzodlarni Pobedonossev tanladi. G'oyat muhim lavozimga — ichki ishlar ministri lavozimiga podshoning Turkiyadagi sobiq elchisi graf N. P. Ignatev tayinlandi. Ignatev ichki ishlar ministri lavozimiga tayinlangan kuniyoq, ya'ni 1881 yil 6 mayda farmoyish chiqarib, unda «fitnani tag-tomiri bilan yo'qotish»ni birinchi vazifa qilib qo'ydi va shu bilan birga Aleksandr II tomonidan zemstvolarga «in'om qilingan» huquqlarni saqlashga hamda dehqonlarning ahvolini yaxshilashga yolg'ondakam va'da berdi.

Liberal doiralarda maslahatchi «zemstvo yig'ilishlari»ni chaqirish umidi hamon yo'qolmaganligi va ayniqsa, dehqonlarning kayfiyati yomonligi to'g'risida qishloqlardan to'xtovsiz xabarlar kelib turgan edi. Allakim tomonidan «jinoyatkorona» varaqalar tarqatilayotganligi, dehqonlarning vikup va obrok to'lovlari to'lashdan hamon bosh tortayotgani to'g'risida 1881 yil bahorida bir qancha uezdlardan xabarlar kelgandi. Hukumat erlarni qaytadan taqsimlashga tayyorlanayotgan emish,— degan gaplar mamlakatning ko'p rayonlarida zo'r berib tarqalmoqda edi. Ba'zi joylarda dehqonlar Aleksandr II ning o'ldirilishini pomeshchiklardan ko'rar edilar, «podshoning marhamati bilan» erlarni qayta taqsimlash haqidagi xalq kutayotgan manifestning chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun pomeshchiklar podshoni o'ldirishgan, deb o'ylar edilar. 1883 yil 21 mayda Aleksandr III saroyda o'z huzuriga to'plangan volost boshliqlariga «erlarning qayta taqsimlanishi, bepul qo'shimcha er qirqib berilishi va boshqa shu singari bema'ni va bo'lmag'ur mish-mishlar va uzun-quloq gaplarga» ishonmasliklari kerakligini shaxsan aytishni zarur deb hisoblagani bejiz emas edi; «...har qanday mulk daxlsiz bo'lmog'i kerak,— dedi podsho. 1881 yil avgustda «Davlat tartibini va jamoat osoyishtaligini muhofaza qilish choralari to'g'risida nizom» chiqarildi, unda barcha gubernatorlarga gubernyani «kuchli va favqulodda muhofaza holatida» deb e'lon qilish, «davlatga qarshi jinoyat qilganlik yoki qo'shin, politsiya amaldorlariga va umuman hamma mansabdor shaxslarga hujum etganlik» uchun harbiy sudga berish, agar «bunday ishlarni xalq oldida ko'rib chiqish

kishilarning g‘azablanishiga va tartib buzilishiga sabab bo‘ladigan» bo‘lsa ularni yopiq majlisda ko‘rishni suddan talab qilish huquqi berilgan edi. Aleksandr III tomonidan uch yillik muddatga tasdiqlangan bu «muvaqqat» nizom chor Rossiyasida to 1917 yilgacha qo‘llanildi.

10 mavzu. XIX asr oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

80- yillarda mamlakatning hayotida davlat homiyligining yangi talabgori—yirik sanoat sarmoyasi paydo bo‘ldi. Podsho Aleksandr III hukumatining iqtisodiy siyosatini bir-biriga zid ikki yoqlama vazifa, ya’ni mulkdor pomeshchiklar foydasi uchun Rossiyada yarim krepostniklik imtiyozlarini saqlab qolmoq hamda yirik sarmoya manfaatlarini hisobga olib, proteksion boj siyosati yuritish, davlat buyurtmalarini ko‘paytirish va boshqa tadbirlar yo‘li bilan bir vaqtning o‘zida sanoatni rivojlantirishga ham yordam bermok vazifasi belgilar edi.

Davlatning moliyaviy ahvoli og‘irligi podsho hukumatini chetga oltin chiqarishni kamaytirishga majbur etdi. Oltin ichki sarf-xarajatlarni qoplash uchungina emas, balki chet davlatlardan tobora ko‘p miqdorda olinayotgan qarzlar foizini to‘lab turish uchun ham zarur edi. 1880 yilgacha mamlakatga mashinasozlik va temir yo‘llar uchun kerakli cho‘yan va temir chet ellardan poshlina olinmay keltirilar edi. Chetdan cho‘yan va temirni poshlinasiz keltirish 1880 yilda kon sanoat korxonalari egalarining iltimosi bilan bekor qilindi. Shu bilan bir vaqtda, Rossiyaga chetdan keltiriladigan parovozlar, mashinalar, qishloq xo‘jalik qurollari, mashina jihozlari, asbob-uskuna va boshqa shunga o‘xshash narsalardan ham poshlina (boj to‘lovi) olinadigan bo‘ldi.

1885 yilda chet ellardan keltiriladigan temirdan, 1887 yilda eca chet

ellardan keltiriladigan cho‘yandan olinadigan poshlina ko‘paytirildi. Chet ellardan keltiriladigan toshko‘mirdan olinadigan poshlina uch marta — 1884 yilda, 1886 yilda va 1887 yilda oshirildi. Rossiya-Germaniya boj urushini ochiqdan-ochiq e‘lon qilingan 1891 yil 11 iyun tarifi mamlakatga qayta ishlash sanoatning ko‘pgina mahsulotlarini chet eldan keltirishni mutlaqo deyarli taqiqlab qo‘yish uchun joriy qilingan edi. Bu tarifga binoan boj solig‘i mahsulotlar qiymatining 30 % borar edi. Hukumat Rossiya sarmoyasini rag‘batlantirishga qaratilgan o‘z siyosatida davlat buyurtmalarini ancha ko‘paytirdi, xususiy temir yo‘llarni sotib olishni avjiga chiqardi va shu bilan bir vaqtda, xususiy temir yo‘llarning davlatga to‘lashi zarur bo‘lgan yuz million rubllarcha qarzini o‘chirib tashladi. Hukumatning boj sohasidagi homiylik siyosati ko‘zga ko‘ringan dvoryan-mulkdor doiralarning qarshiligiga duch keldi, chunki bu siyosat ularning chet ellardan sotib oladigan qishloq xo‘jalik mashinalari, maishiy qulaylik va zeb-ziynat buyumlari bahosining oshib ketishiga sabab bo‘lish bilan birga, davlat subsidiyalarining pomeshchiklar foydasiga emas, balki «boshqa tomonga» qarab ketishini ham bildirar edi. Lekin mamlakatdagi bu hukmron ikki guruh manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat Germaniyadan Rossiyaga keltiriladigan qishloq xo‘jalik mashinalari va boshqa mashinalardan olinadigan poshlinaning oshirilishiga javoban Germaniya rus g‘allasi va chorva mollaridan olinadigan poshlinani oshirib, rus pomeshchik eskportchilari manfaatlariga qattiq zarba berganida ayniqsa kuchaydi.

Temir yo‘l ishida davlat manfaatlari va temir yo‘llar daromadini oshirishga harakat qilgan xususiy kompaniyalarning manfaatlari ham g‘alla va boshqa ommaviy yuklar uchun belgilangan temir yo‘l tariflarini kamaytirishga intilgan pomeshchik xo‘jaligining manfaatlari bilan to‘qnashdi. Hukumat ,pomeshchiklar talablarini e‘tibor bilan bajo keltirib, davlatning temir yo‘llarga beradigan dotatsiyalarini ko‘paytirish hisobiga temir yo‘l tariflarini kamaytirdi. Mamlakat ichidagi temir yo‘l tariflari shunday qilib tuzildiki, natijada g‘allakor rayonlarning—Povolje, Shimoliy Kavkaz va Sibirning arzon

gʻallasini ichki bozorlarga chiqarish foyda bermaydigan boʻlib qoldi, shu tariqa ichki bozorlarda mahalliy pomeshchiklar tomonidan sotiladigan gʻallaning bahosi turgʻun holda saqlandi. Shu bilan bnr vaqtda gʻalla eksport qiluvchi pomeshchiklarning temir yoʻllar orqali gʻarbiy chegara va portlarga tashiydigan gʻallasi uchun himoyaviy tariflar belgilangan edi. Dvoryanlar banki va dehqonlarning er banki yordamida hukumat iqtisodiy jihatdan qoloq pomeshchik xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlab turardi.

Pomeshchiklarning vakillari hukumatning aksiz (bilvosita soliq) siyosatidan shikoyat qilardilar, ular bu siyosat sanoatchilar manfaatini qoʻriqlaydi va «qishloq xoʻjaligi»ga, yaʼni pomeshchiklarga zarar keltiradi, deb oʻylardilar. Mamlakatda qand savdosi kasodga uchragan davrda qand zavodlarining egalariga yordam berish maqsadida hukumat Oʻrta Osiyo va Eronga chiqarilgan har bir pud qand uchun 1886 yilda qand zavodi egalariga 50 tiyindan davlat «mukofoti» tayinladi. Shundan keyin lavlagikor pomeshchiklar davlat yordamini talab qildilar, ammo hukumat ularning talabiga lavlagi ekishni kamaytirish taklifi bilan javob berdi. Qand zavodlarining egalariga esa qand ishlab chiqarishni «maʼlum tartib va qoidaga solish» uchun sindikat tashkil etish taklif qilindiki, bundan lavlagikor-pomeshchiklar katta zarar koʻrgan boʻlardi.

Boshqa hollarda, aksincha, hukumat sanoatchilarning manfaatlari zarariga butunlay pomeshchiklar tomonini olardi. Masalan, rus-amerika jamiyati Rossiyadagi gʻalla etishtiruvchilar bilan gʻallani chet elga chiqarib sotuvchilar oʻrtasida vositachilik qilish maqsadida Rossiyada yirik mexanizatsiyalashgan elevatorlar qurish loyihasini taqdim qilganida (1884 yilda) manfaatdor pomeshchik doiralari bu tadbir oʻzlarining gʻalla savdosidan oladigan foydalarini kamaytirib qoʻyishi mumkin deb oʻyladilar va loyihaning rad qilinishiga erishdilar.

Atamalar

Assambleya	- yigʻilish – Pyotr I zamonida aslzodalar uchun tez-tez uyushtirilib turiladigan xursandchilik kechalari.
Barin	- aslzoda-pomeshchik, er egasi.
Voevoda	- harbiy boshliq, hokim-harbiy mansab; Pyotr I tomonidan XVIII asr boshlarida bekor qilingan maʼmuriy mansab.
Volost	- bir necha qishloqni oʻziga birlashtirgan kichik maʼmuriy birlik.
Gvardiya	- soqchi, posbon – qoʻshinning maxsus imtiyozga ega boʻlgan va saralangan qismi, oliy hukmdorning tayanch kuchlaridan biri.
Guberniya	- Rossiyada yirik mahalliy maʼmuriy-hududiy birlik.
Dvoryan	- jamiyatning maʼlum irsiy imtiyozga (er-suv, mansab) ega boʻlgan oliy tabaqasi
Dekabristlar	- XIX asr boshlarida Rossiyadagi mavjud tartib va podshoning mutloq hokimiyatiga qarshi boshlangan rus dvoryanlar harakatining faol ishtirokchilari, 1825 yil 14 dekabr qoʻzgʻolonining boshliqlari.
Zemstvo	- Rossiyada 1864 yilgi islohotga binoan guberniyalarda tuzilgan mahalliy hokimiyat organi.
Igumen	- etakchi, nozir – pravoslav monastirining nazoratchisi; 1764 yili belgilangan tartibga koʻra, uchinchi darajali monastir noziri.
Imenie	- pomeshchikning er-suvi, qasr va saroylari hamda boshqa binolari.
Kollegiya	- oʻrtoqlik, birlik, hamkorlik; Pyotr I tarafidan 1715-1717 yillari tashkil etilgan markaziy davlat idoralari.
Mitropolit	- xristian cherkovining boshliqlaridan; rutba jihatidan patriarxdan keyin, arxiepiskopdan avval turgan.
Nakaz	- yoʻl-yoʻriq, koʻrsatma, nasihat.
Obrok	- duchor qilmoq, mahkum qilmoq -1861 yilga qadar Rossiyada dexqonlardan mahsulot yoki pul bilan olinadigan maxsus soliq.
Patriarx	- ajdod, ota, urugʻ boshligʻi; mustaqil xristian pravoslav cherkovining boshligʻi.

Pomestye	- pomeshchika qarashli er-suv
Pomeshchik	- pomeste egasi.
Poselenie	- ko‘chirish, joylashtirish, ko‘chib kelish, joylashish; qishloq, ovul.
Rekrut	- qo‘shin to‘plash; harbiy xizmat yuzasidan armiyaga yangi chaqirilgan kishi.
Stachka	- ish tashlash
Tamojnya	- bojxona
Uezd	- XIII-XIX asrlarda Rossiyadagi ma’muriy-territorial birlik.
Usadba	- Rossiyada boyar va pomeshchiklarning doimiy istiqomat qiladigan qarorgohi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Анисимов Е. Императорская Россия. - СПб., 2011.
2. Анисимов Е.В., Каменский А.Б. Россия в XVIII – первой половине XIX века: История. Историк. Документ. -М., 1994.
3. Архипова Т.Г., Сенин А.С. История государственной службы в России XVIII-XX вв . -М. , 2001.
4. Брикнер А.Г. История Екатерины II. -М., 1991, т. 1-2.
5. Великие реформы в России 1856-1874 / Под ред. Л.Г.Захаровой, Б.Эклофа, Дж.Бушнелла. -М., 1992.
6. Великие реформы в России, 1856-1874 гг. / Под ред. Л.Г.Захаровой, Б.Эклофа, Дж.Бушнелла. -М., 1992.
7. Горинов М.М., Горский А.А., Данилов А.А. и др. История России с древнейших времен до конца XX века. -М., 2001.
8. Двухжилова И.В. Реформы Александра II. -Тамбов,2008.
9. Де Кюстин А. Николаевская Россия. -М., 1990.
10. Захарцев С.Н. Россия в XVII - первой четверти XVIII века. - Тамбов, 2008.

11. История России с начала XVIII до конца XIX века. / Под ред. А.Н.Сахарова, -М., 1996.
12. Кабузан В.М. Народы России в XVIII веке. -М., 1990.
13. Мироненко С.В. Страницы тайной истории самодержавия: политическая история России первой половины XIX столетия. -М., 1990.
14. Миронов Б.Н. Социальная история России периода империи (XVIII-начало XX в.). В 2 т. -Спб., 2003,
15. Миронов В.Б. Российская Империя XIX - начала XX века. -М., 2011.
16. Мунчаев Ш.М., Установ В.М. История России (учебник для ВУЗов). -М., 1997.
17. Мячин А.Н. Мир русской истории. -М., 1997.
18. Ольденбург С.С. Царствование императора Николая II. -М., 1992.
19. Павленко Н.И. Пётр Первый. -М., 1990.
20. Писарькова Л.Ф. Государственное управление России с конца XVII до конца XVIII века. Эволюция бюрократической системы. -М., 2007.
21. Платонов С.Ф. Учебник Русской истории. -СПб., 1997.
22. Пресняков А.Е. Российские самодержцы. -М., 1990.
23. Российские самодержцы. -М., 1992.
24. Россия на рубеже веков: исторические портреты. -М., 1991.
25. Федоров В.А. (ред.) История России XIX - начала XX в. 4-е издание, переработанное и дополненное. -М., 2008.
26. Alan Wood.The Romanov Empire 1613-1917. New York: Hodder Education, 2007.
27. Bucher Greta . Daily Life in Imperial Russia. 2008.
28. Catherine Evtuhov et al., A History of Russia: Peoples, Legends, Events, Forces .New York: Houghton Mifflin Company, 2004. 247.
29. Dixon Simon . Catherine the Great . New York .HarperCollins. 2009.
30. Francis Wcislo.Tales of imperial Russia.The life and times of Sergei Witte, 1849-1915 . Oxford University Press,London,2011.
31. Gregory Freeze. Russia .A History. New York: Oxford University Press, 2009.

32. James R. Millar .Encyclopedia of Russian History. Macmillan Reference . 2004
33. Kort M. A Brief History of Russia. New York: Checkmark Books, 2008.
34. Leonard Carol S. Agrarian Reform in Russia: The Road from Serfdom .Cambridge university press, 2010.
35. Lieven D. (edit.) The Cambridge History of Russia, Volume 2: Imperial Russia, 1689-1917. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
36. Madariaga, Isabel de. Catherine the Great: A Short History. New Haven, CT: Yale University Press, 2002.
37. Marshall Alex. Russian General Staff and Asia, 1860-1917.2006.
38. Nicholas V Riasanovsky and Mark D Steinberg. A History of Russia . New York: Oxford University Press, 2011.
39. Poe M.T. The Russian Moment in World History . New Jersy, "Princeton University Press", 2003.
40. Reform, war and revolution in Russian empire from Cambridge history of Russia, volume 2.: Press Cambridge University.2001.
41. Russian Empire: Space, People, Power, 1700-1930, ed. by Jane Burbank, Mark Von Hagen. Indiana University Press, 2007.
42. Stone D. A Military History of Russia From Ivan the Terrible to the War in Chechnya . Lnd. : Greenwood Publishing Group, 2006.
43. Wallace D.M. Russia. Volume 1-3. Volume 1-3. Boston: J.B. Milet Company, 1910.